

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

TABIIY FANLAR FAKUL'TETI

EKOLOGIYA KAFEDRASI

Abdujabborova Yulduzning

**“Namangan viloyatining nozogeografik vaziyatini ekologik tahlili”
mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Namangan – 2016

MUNDARIJA

KIRISH	<i>beti</i> 3
I-Bob: AXOLIGA TIBBIY XIZMAT KO'RSATISH VA IJTIMOY MUHOFAZA QILISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	
1.1. Axoli salomatlik darajasini o'rganish bo'yicha olib borilgan ilmiy ishlanmalar taxlili.....	9
1.2. Aholi salomatligini geografik o'rganishning uslubiy asoslari.....	16
1.3. Axoliga tibbiy xizmat ko'rsatishning ijtimoiy geoeologik xususiyatlari.....	22
II-Bob: NAMANGAN VILOYATIDA KASALLIKLARNING YUZAGA KELISHI VA NOZOGEOGRAFIK VAZIYATINING EKOLOGIK TAXLILI.....	
2.1. Viloyat hududida ekologik muammolarni keltirib chiqaruvchi manbalar va ularning inson salomatligiga ta'siri.....	33
2.2. Viloyat axolisining salomatligiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy- iqtisodiy omillar.....	39
2.3. Aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishni hududiy tashkil etilishini takomillashtirish.....	44
2.4. Viloyatda axoli salomatligini yaxshilash muammolari va istiqbolli yo'nalishlari.....	51
XULOSA.....	58
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI.....	60

KIRISH.

Aholi salomatligiga aloqador masalalarni hal etishda salomatlik va kasalliklarning hududiy xususiyatlarini o'zida aks ettiruvchi tibbiyot geografiyasining roli katta. Ushbu fan sohasini chuqur o'rganish orqali biz o'lkamiz tabiiy, iqtisodiy va ekologik sharoitidan kelib chiqqan holda turli kasalliklar, eng ko'p uchraydigan hududlarni aniqlash va ularning o'ziga xos tarqalish qonuniyatlari haqida fikr yuritishimiz mumkin.

Tibbiyot geografiyasi hozirgi zamon iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanini, uning tadqiqot ob'ektini keng qamrovligi, ijtimoiylashuv va ekologik yondoshuvlar bilan kuchaytirilishidan kelib chiqqan holda rivojlanib bormoqda. Bu esa, o'z navbatida, ushbu fanni jahon andozalariga mos ravishda shakllanib borishiga, uning fundamental va frontal rivojlanishiga yordam beradi. Ayni vaqtda tibbiyot geografiyasi birmuncha o'z tarixiy o'zagidan uzoqlashish xavfi tug'ilgan iqtisodiy va ijtimoiy geografiyani uning «yondosh va qondosh» qo'shnisi-tabiiy geografiyaga yaqinlashtiradi. SHu nuqtai nazardan tibbiyot geografiyasi sotsial geografiyaning alohida qismi sifatida bir tomondan tibbiyot soahsi, ikkinchi tomondan esa tabiiy geografiya bilimlarni ham chuqurroq bilishni talab etadi.

Mavzuning dolzarbligi. Jamiyat taraqqiyoti, uning ma'lum bir rivojlanish davrida erishilgan yutuqlari bevosita aholining ijtimoiy holati va salomatligi bilan bog'liqdir. Ayni vaqtda aholining har tomonlama kamol topishi, ma'naviy va jismoniy sog'ligi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichi va muhim omili hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng aholi salomatligiga, mamlakatning turli hududlarida ekologik vaziyatni sog'lomlashtirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, respublika Prezidenti I. A. Karimov bu borada «Ekologik muammolar mintaqaviy miqyosdan umuminsoniy muammoga aylangan bugungi kunda ekologik xavfsizlikni

ta'minlash viloyatlarda, ayniqsa Orol dengizi havzasida olib borilayotgan tadbirlarni jadallashtirish muhim masalalardan biridir», deb ta'kidlagan¹.

O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida katta ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar amalga oshirildi. SHu bilan birga sobiq Ittifoq davridan meros qolgan xo'jalikning tor ixtisoslashuvini bartaraf etish, noto'g'ri iqtisodiy faoliyat oqibatida shakllangan turli darajadagi ijtimoiy va ekologik muammolar yechimini topish, aholi salomatligini muhofaza qilish hamda tibbiyot sohalarini rivojlantirish borasida respublikada keng ishlar olib borilmoqda. Xususan, 2009 yilni «Qishloq taraqqiyoti va farovonlik yili», 2014 yilni «Sog'lom bola yili» deb belgilanishi ham mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. CHunki, O'zbekiston Respublikasi aholisining 2/3 qismi qishloqlarda yashaydi. Respublika Prezidenti I.A. Karimov bu boradagi vazifalar doirasida "...biz uchun eng katta boylik bo'lgan aholi salomatligini asrash, aholining tibbiy madaniyatini oshirish" masalasini alohida ta'kidlaydi.

Nozogeografiya yoki inson kasalliklari geografiyasi tibbiyot geografiyasining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, u yer sharida tarqalgan kasalliklar, ularni vujudga keltiruvchi sabab va qonuniyatlarini o'rganadi. Bu boradagi ilmiy izlanishlar XVIII asrda boshlangan. Olib borilgan tadqiqotlarning asosiy qismi insonlarda uchraydigan ayrim kasalliklarga xususan yuqumli - parazitlar kasalliklarga qaratilgan. Ushbu tadqiqotlar XVIII – asr boshlarida tibbiyot geografiyasining alohida bir yo'nalishi sifatida yuzaga keldi. Ammo erishilgan ijtimoiy-iqtisodiy yutuqlar bilan birga ayrim o'z yechimini kutayotgan masalalar ham yo'q emas. Hududlarda ba'zi kasalliklarning ortib borayotganligi, eng avvalo, ekologik sharoitning yomonlashuvi ta'sirida yuzaga kelmoqda. SHu nuqtai nazardan mintaqalarda ekologik vaziyatning salbiylashuvi va aholi kasallanishining hududiy tarqalishi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Yuqorida keltirilgan holatlar muammoning ijtimoiy geografik jihatlarini tadqiq etishni

¹ Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари – Т.: Ўзбекистон, 1997, б. 114.

hamda mintaqada aholi salomatligiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganishni dolzarb qilib qo'ymoqda. Xususan, bu borada xizmat ko'rsatish, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.¹

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Davrlar o'tishi bilan kasalliklarning vujudga kelish va tarqalish sabablarini aniqlashga maxsus nazariy va amaliy tadqiqotlar amalga oshirildi. Masalan, sobiq Ittifoq davrida mazkur tadqiqotlar o'lka parazitologiyasi, landshaft-epidimiologiyasi, epidemik geografiya, geogelmentologiya va boshqa ilmiy yo'nalishlar doirasida amalga oshirildi. Bu borada asosiy izlanishlar Ye.N. Pavlovskiy, K.N. Skryabin, G.Ya. Zmeev. V.Ya. Podolyan kabi olimlar tomonidan olib borildi. Inson kasalliklari geografiyasi masalalarni hal etishda XVIII – halqaro geografiya kongressining tibbiyot geografiyasi seksiyasi muhim o'rin tutdi. Ushbu kongress 1956 yil avgust oyida Reo- de - Janeyro shahrida bo'lib o'tdi. Kongressda xalqaro potologik geografiya jamiyati «Kasalliklar va geografik muxit o'rtasidagi aloqadorlik»ni o'rganish g'oyasini ildgari surdi. Rak kasalligining geografik tarqalishini o'rganshi bilan xalqaro rakka qarshi ittifoq shug'ullandi. Nozogeografiyaning asosiy vazifasi insonlarda uchraydigan kasalliklar tarqalishining umumiy geografik qonuniyatlarini aniqlash, alohida kasalliklar nozokompleks va nozoariyallari ularning dinamikasini tadqiq qilishdan iborat. Hozirgi vaqtda nozogeografiya tibbiyot geografiyasining muhim yo'nalishi sifatida qator masalalar bilan shug'ullanadi:

Jumladan u:

- inson kasalliklar geografiyasining nazariy, uslubiy asoslarini o'rganadi.
- inson kasalliklarining vujudga kelishi va geografik tarqalishda tabiiy va ijtimoiy – iqtisodiy omillar ta'sirini baxolaydi;

² Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари.-Т.: Ўзбекистон, 2009, б. 46-48.

- ayrim kasalliklar geografiyasi qonuniyatlarini o'rganadi va tegishli nozogeografik kartalar tuzadi;
- nozogeografiya insonlarda uchraydigan turli kasalliklarning hududiy majmua va nozoarealrini tadqiq etadi;
- nozogeografik vaziyatni baholash asosida uni yaxshilashning asosiy yo'nalishlarini bashorat qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, nozogeografiya sohasidagi tadqiqotlar dastavval insonlarda uchraydigan yuqumli kasalliklarga qaratilgan. Sobiq ittifoqda mazkur tadqiqotlarning asosiy qismi tabiiy o'choqlar, transmissiv kasalliklar va gelmintozlar ustida olib borildi. Bu borada akademik Ye.N. Pavlovskiyning xizmatlari katta bo'lgan.

Tibbiyot geografiyasi va ijtimoiy ekologiya doirasida aholi salomatligi, unga ta'sir etuvchi omillar atroflicha o'rganilgan. Jumladan, sobiq Ittifoq va MDH olimlaridan A.P. Avtсын, A.G. Voronov, Ye.N. Pavlovskiy, A.A. SHoshin, B.B. Proxorov, A.V. CHaklin, Ye.L. Rayxlar, "uzoq" xorijdan U. Bordjers, J. Mey, T. Miller, kabilar aholi salomatligining hududiy jihatlarini tadqiq etishgan.

Respublikada ko'rilayotgan muammoga yoki unga yaqin masalalar bo'yicha Yu.SH. SHodimetov, M.N. Nazarov, K.N. Komilova, X.T. Tursunov, I.T. Turdimambetovlarning tadqiqotlari ajralib turadi. SHuningdek, aholi geografiyasi, demografiya va ijtimoiy ekologiya sohalarida M. R. Bo'rieva, O.B. Ota-Mirzaev, A. S. Soliev, A.N. Nigmatov, A.A. Qayumov va boshqalar tomonidan olib borilayotgan ilmiy izlanishlarida ham mazkur muammo qisman o'rganilgan. Biroq, shu bilan birga ta'kidlash lozimki, hozirgi sharoitda alohida hududlar miqyosida ijtimoiy ekologiya bilan bog'liq aholi salomatligining mintaqaviy xususiyatlari bo'yicha maxsus tadqiqotlar olib borilmagan.

Tadqiqot ishining ob'ekti va predmeti. Tadqiqot ishining **ob'ekti** sifatida Namangan viloyatining geoekologik holati va aholi kasallanishining hududiy tarqalishi, uning **predmeti** sifatida esa viloyat aholisi salomatligining geoekologik jihatlarini tanlangan.

Tadqiqotning maqsadi. Namangan viloyati misolida ijtimoiy ekologik va nozogeografik vaziyatni o'zaro aloqadorlik holda tahlil qilish asosida aholi salomatligini yaxshilash bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari. Tadqiqot ishida quyidagi vazifalar belgilangan va hal qilingan:

- aholi salomatligining ijtimoiy ekologiya bilan bog'liqligini tahlil qilish;
- aholi salomatligini geografik o'rganishning metodik asoslarini takomillashtirish;
- Namangan viloyati aholisining o'sishi va joylanish xususiyatlarini tadqiq etish;
- viloyat umumiy nozogeografik vaziyatini tahlil qilish va baholash;
- qishloq tumanlari miqyosida kasallanish va o'lim ko'rsatkichlarini o'rganish, aholi kasallanishining hududiy tarkibini tadqiq qilish;
- Namangan viloyatida ijtimoiy ekologik muammolarni aniqlash, ularni yechimi bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish va b.

Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi, aholi salomatligiga ta'sir etuvchi ijtimoiy ekologik omillarning geografik jihatlari alohida mintaq (hudud) doirasida o'rganilganligi bilan belgilanadi. SHu bilan birga ishda:

- ijtimoiy ekologiya va aholi salomatligi o'rtasidagi aloqadorlik o'rganilgan;
- qadimdan sug'orma dehqonchilik rivojlangan Namangan viloyatida aholi salomatligiga ta'sir etuvchi omillarning o'ziga xos jihatlari aniqlangan;
- viloyat aholisining kasallanish ko'rsatkichlari va ularni vujudga keltiruvchi ekologik omillar qishloq tumanlari doirasida tadqiq etilgan;
- **Tadqiqot ishining tarkibiy tuzilishi va hajmi.** Ish kirish, ikki bob, xulosa, adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan. Uning umumiy hajmi 62 bet, shundan asosiy matn 58 bet. Matnda 2 jadval joy olgan, 45 nomdagi adabiyotlar keltirilgan.
- Tadqiqot ishining **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi, maqsadi va vazifasi, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati yoritilgan.

- Ishning **xulosa** qismida tadqiqot natijalari umumlashtirilgan, viloyatda ekologik vaziyat va aholi salomatligini yaxshilash bo'yicha ilmiy – amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

I – BOB: AXOLIGA TIBBIY XIZMAT KO'RSATISH VA IJTIMOIIY MUHOFAZA QILISHNING NAZARIY-USLUBIIY ASOSLARI

1.1.Axoliga tibbiy hizmat ko'rsatishning ijtimoiy geoeologik xususiyatlari.

Fan va texnika rivojlanib borayotgan hozirgi davrda ijtimoiy ruhdagi tadqiqotlarning ko'lamini ortib bormoqda. SHu jumladan ijtimoiy ekologik izlanishlar miqyosi ham jadal rivojlanmoqda.

Insoniyat yoki jamiyat taraqqiyotining dastlabki va o'rta davrlarida tabiatga ko'p ma'noda qaram bo'lgan bo'lsa, yaqin o'tmishda o'z yaratuvchisining tashkil etuvchi unsurlarini o'zgartiruvchi mustaqil geologik kuchga hamda mustaqil va yaratuvchi (noosfera) qudrat qobig'iga aylandi.

Kishilik jamiyati rivojlanishining avvalgi, sanoat ishlab chiqarish bosqichigacha bo'lgan davrida insoniyatning tabiiy muhitga bo'lgan ta'siri unchalik kuchli bo'lmagan. SHu bois tabiat va jamiyat munosabatlarini turlicha yo'nalishda ilmiy o'rganishning aksariyati deterministik ruhda bo'lgan. Tabiat, olam tuzilishi hamda jamiyatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlariga bag'ishlangan antik (Demokrit, Aristotel, Platon, Teofrast), feodal (Forobiy, Ibn Sino, Mal'tus) davr adabiyotlarida mazkur g'oya yaqqol ajralib turadi. Ushbu qarashlar so'nggi tarixiy rivojlanishning dastlabki davrlarida ham keng tarqaldi.

Jamiyatning tabiatga texnogen ta'siri tadqiqotchilar tomonidan turlicha talqin qilingan. Ayrim olimlar uni terib-termachlash (o'ziniki qilib olish), agrar, industrial, noosfera davrlariga ajratsa, boshqalari agrar va sanoatlashuv, biogen hamda texnogen kabi qismlarga bo'lishgan, Umuman olganda, ularning mazmuni bir-biriga yaqin, faqat tadqiqotchilar bu yerda o'z fani nuqtai nazaridan yondoshgan, xolos.

Tabiatni mintaqaviy yoki hududiy miqyosda o'zlashtirish, jamiyat taraqqiyotini geografik izohlash ham o'ziga xoslik va yuqoridagilar bilan o'xshashlik kasb etadi. Jumladan, jamiyat taraqqiyotining ilk davrida, so'ngra qishloq xo'jaligining rivojlanishida daryo tsivilizatsiyasi (madaniyati), keyinroq

dengiz va dengiz bo'yi, Buyuk geografik kashfiyotlar davridan okean tsivilizatsiyalarining vujudga kelishi bevosita insonning geografik makonni hamda resurslarni o'zlashtirishining hududiy miqyoslarini o'zida aks ettiradi.

Jamiyat taraqqiyotining ilk, agrar bosqichlarida ijtimoiy makonning shakllanganligi bevosita hududning inson organizmi rivojlanishi uchun qulay, dehqonchilik yuritish sharoiti mavjudligi bilan bog'liq bo'lgan. Mesopotamiya, Nil del'tasi, Hind-Gang tekisligi, Yantszi, Xuanxe quyi oqimi, Murg'ob va Tajan havzasi, Amudaryo hamda Sirdaryo bo'ylari dastlab ana shunday qulay sharoitni ta'minlagan. Ushbu daryolar bo'yida jahonning ilk tsivilizatsiya o'choqlari vujudga kelgan.

Jamiyat taraqqiyotining tarixiy tahlili shuni ko'rsatadiki, to'plangan xo'jalik tajribasi hamda uning natijasida yuzaga kelgan siyosiy jarayonlardagi inqilobiy ko'tarilishlar jiddiy o'zgarishlarga olib kelgan. Bu davrda iqtisodiyot tarmoqlari tez rivojlanib boradi va jamiyatning tabiatga ta'siri eng yuqori darajasini qayd etadi. Ushbu holat ma'lum muddat o'tganidan so'ng ijtimoiy-iqtisodiy turg'unlik, siyosiy beqarorliklarni keltirib chiqargan va bu yangi progressivroq taraqqiyot bosqichiga o'tishga zamin tayyorlagan.

SHu o'rinda ta'kidlash lozimki, ma'lum bir kashfiyot va tadqiqotlar fanning shakllanishi, siyosiy-iqtisodiy o'zgarishlar va ijtimoiy buyurtma asosida shakllanadi. «Ekologiya» termini antik davridayoq tilga olingan bo'lsada, uning fan sifatida shakllana boshlashi XVIII asr oxirlariga borib taqaladi. XVI asrda Yevropada ilm-fan taraqqiyotini o'zida mujassamlashtirgan uyg'onish davrining boshlanishi ko'pgina fan sohalari kabi ekologik bilimlar majmuining qayta jonlanishiga turtki bo'ldi. Ekologiya rivojlanishi tabiatni o'rganish va tavsiflashdan boshlandi.

Ekologiya fanining shakllanishida Levenguk (XVIII asr), Ernst Gekkel, J.A Faberlarning (XIX asr) tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning asarlarida, ekologiya, ozuqa zanjirining uzviyligi kabi tushuncha va qarashdan organik va noorganik tizimning yaxlitligini ifodalovchi ekotizimni o'rganuvchi

(Levenguk-Gekkel) fan darajasiga ko'tarildi. Fan tabiat va undagi o'zaro bog'liqlikni tavsiflovchi predmetdan, ekotizimni hamda insonning undagi o'rnini, organik dunyoning evolyutsion taraqqiyotini majmual tahlil qiluvchi tadqiqot yo'nalishiga aylandi. Ekologiya insonning biosferada tutgan o'rnini tadqiq etar ekan unga bo'lgan munosabatini inobatga olishi, ushbu hol esa o'zining ham tabiiy, ham ijtimoiy mazmun kasb etishligini bildiradi.

Ekologiya fanining asoschisi Ernst Gekkel ekologiya bu-tabiat iqtisodiyotini anglashdir, ayni vaqtda, tiriklikning muhitning organik va noorganik aloqadorligini, bunda, albatta, bir-biri bilan aloqada bo'luvchi hayvon va o'simliklarning noantagonistik va antagonistik (o'xshash va ziddiyatli) aloqadorligini o'rganishdir deb yozadi.

Ekologiya fan sifatida shaklan va mazmunan XX asrda ancha rivoj topdi. Uning o'rganish ob'ekti va predmeti aniqlandi, olib borilayotgan tadqiqotlar doirasi ham kengayib bordi. Biroq, ekologiya ta'rifi turlicha talqin etilsada, mohiyatan bir-biriga yaqin. Ekologiya evolyutsion va noevolyutsion rivojlanuvchi tirik organizmlarning tabiiy muhit bilan aloqasini o'rganuvchi tirik unsurlarning hayoti kechadigan tabiiy muhitda inson omilini hisobga olib tadqiq etuvchi fan sifatida ta'riflanadi.

O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, jamiyat taraqqiyoti bilan ekologiya tushunchasi va uning mazmuni ham o'zgarib, boyib bordi. Masalan, dastlabki sof biologik xususiyatlarga ega bo'lgan ekologiya (zooekologiya, fitoekologiya), sanoat taraqqiyoti davrida industrial ekologiya, keyingi yillarda esa u ko'proq ijtimoiy ekologiyaga aylanmoqda (1.1-rasm). Ijtimoiy ekologiya o'z navbatida urboekologiya va inson ekologiyasini qamrab oladi. Inson ekologiyasi ayni vaqtda tibbiyot olimlari tomonidan ham qo'llaniladi va ular dastlab «ekotizim» tushunchasini xuddi shu mazmunda yaratishgan.

Ekologiya barcha tabiiy fanlar qirrasida tursada, ko'proq biologiya, botanika, fizika, kimyo bilan yaqinroqdir. Ayni vaqtda u tibbiyot, geologiya, geografiya, matematika va boshqa fanlar bilan ham mustahkam aloqaga ega.

Ayniqsa, ekologiyani geografiya bilan yaqinligini ta'kidlash joiz. Ba'zi olimlar (masalan, Park va Bordjers) bu ikki fanni qaysi bir holatda ma'nodosh sifatida talqin qilishadi. CHindan ham, geografiya va ekologiya ning eng muhim tamoyili kompleks yondoshuv, hodisalar va voqe'alar o'rtasidagi aloqadorlikni o'rganishdan iboratdir.

Inson yoki ijtimoiy ekologiya tushunchasi dastlab yuqorida nomlari keltirilgan amerikalik olimlar Bordjers va Parklar tomonidan tilga olingan. Ular 1921 yilda inson ekologiyasini tibbiyot fanining alohida yo'nalishi deb e'tirof etishgan. Ammo, uning fan maqomida yuzaga kelishida chikagolik Xarlen Berrouzning xizmatlari katta. U «Geografiya yoxud inson ekologiyasi» nomli ilmiy ishida (1923 y.) inson ekologiyasi bilan geografiyani bir ma'noda talqin qiladi.

Umuman olganda, ijtimoiy ekologiya ning ta'rifi, uning fanlar tizimida tutgan o'rni to'g'risida aniq bir to'xtamga kelingan fikrlar mavjud emas. Ko'proq uni ijtimoiy (sotsiologiya) fanlar tizimiga kiritishadi. SHu bilan birga ijtimoiy ekologiya ning vujudga kelishida shaharlar, shahar ekologiyasi yoki urboekologiya ham katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Ammo, shunga qaramasdan, ijtimoiy ekologiya ning shakllanishi ko'p jihatdan bioekologiyaga, ayniqsa, o'simlik va hayvonlar ekologiyasiga bog'liq. Bunda geografiya faniga xos bo'lgan hududiy, majmualiy yondoshuv ham muhim rol o'ynagan. SHuning uchun bo'lsa kerak, ijtimoiy ekologiya ning dastlabki ta'rifini bergan R. Mak Kenzal uni kishilarni hududiy va davriy xususiyatlariga atrof-muhitning ta'sirini o'rganuvchi fan sifatida talqin qilgan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ekologiya fanining rivojlanishi davomida boshqa fanlar qirrasida yangi tarmoqlari o'sib chiqdi, asta sekin an'anaviy tabiiy ekologiya o'zga ma'no kasb etib bordi.

Ekologiya fannining ushbu ko'rinishda rivojlanishi yuqorida ta'kidlab o'tilganidek «ijtimoiy buyurtma» bilan chambarchas bog'liqdir. Xo'jalik tizimi taraqqiyoti davomida resurslar o'zlashtirilishi hajmining ortishi, bunda ekologik

tizim o'zaro bog'liqligini hisobga olmaslik yoki bilmaslik oqibatida ekologiya va ijtimoiy muhit sharoitining keskinlashuvi ushbu sohalarda chuqur izlanishlar olib borishni talab etdi.

Yuqoridan ko'rinib turibdiki, ijtimoiy ekologiya shakllanishida bir necha fanlar tizimi tadqiqotlari ishtirok etmoqda. Fanning tadqiqot yo'nalishlari tabiiy, ijtimoiy-siyosiy jabhalarni qamrab oladi. Ular orasida bevosita insonning biologik rivojlanishi va salomatligiga ta'sir etuvchi ekologik muammolarni o'rganish alohida o'rin tutadi.

Malumki aholi sonining ortib borishi tabiiy resurslar o'zlashtirish xajmining ko'payishiga, ekologik muvozanatni izdan chiqib borishiga olib keladi. Tabiat-jamiyat munosabatlarini keskinlashishi resurslardan oqilona foydalanish ehtiyojini keltirib chiqardi.

Ijtimoiy ekologiya taraqqiyotida V.I. Vernadskiyning ta'limoti alohida o'rin tutadi. Olim o'z tadqiqotlarida ekologik tizimning ijtimoiy tus olib borayotganligi hamda uni boshqarishda insonning yetakchi o'ringa chiqishi, ya'ni aql-zakovot (noosfera) qobig'ining geografik qobiqni boshqaruvchi kuchga aylanishi lozimligi, ana shundagina tabiat va jamiyat kuchlarining muvozanati sayyoradagi tiriklikning taraqqiyotiga kafil bo'la olishini ta'kidlaydi.

V.I. Vernadskiyning ta'kidlashicha, insonning ilm-fan yutuqlari bilan qurollana borishi bilan uning tabiatning sir-asrirlari, o'zaro ta'sir va bog'liqligining to'la mohiyati haqidagi bilimlar orta boradi. Bu bilimlar tabiiy ravishda insonni atrof-muhitning global ekologik o'zgarishini oldini olishga undaydi.

Ushbu qarashlar hozirda asta-sekinlik bilan to'la ma'noda o'z isbotini topib bormoqda. Insonning texnogen qudrati ostida o'zgargan tabiatdagi mudhish halokat okibatiga tez sur'atlarda uning yashash sharoiti va sog'lig'i putur yetkazuvchi kuchga aylanib bormoqdaki, butun insoniy jamiyat ushbu voqe'likni oldini olishga majbur bo'lmoqda.

Aholi salomatligiga ijtimoiy borliqning rivojlanishi va tashkil etilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ijtimoiy-iktisodiy omillar tabiiy muxitga hududning ekologik omillari (yoki geoekologik omillar) bilan birlashib, kompleks ta'sir etuvchi kuchga aylanib bormoqda.

Hududiy ijtimoiy-ekologik tizim inson faoliyati davomida o'zaro uyg'unlashib ketgan tabiiy va ijtimoiy voqe'likning inson hayoti bilan chambarchas bog'liq qobig'ini qamrab oladi. Tabiiy sharoit komponentlarining holati bevosita insonning sog'ligi va fiziologik tuzilishini aks ettiradi. Ijtimoiy muhit esa inson salomatligining barqarorligi, saqlanishi, o'zgaruvchanligini ta'minlaydi. Masalan, qulay tabiiy sharoit aholining asosiy fiziologik ko'rsatkichlarini me'yorda bo'lishini ta'minlasa, iqtisodiy nochorlik, uni o'nglash uchun fiziologik va ruhiy urinishi aksincha holatni keltirib chiqaradi.

Inson butun jamiyat taraqqiyotida o'z hayotini yengillashtirish, mehnat va ishlab chiqarish vositalarini takomillashtirish ustida tinimsiz izlangan va u atrofidagi ijtimoiy borliqni o'zgartira borgan. Ushbu jarayonda inson organizmi ma'lum adaptatsiya (moslashuv) bosqichini o'tib keldi. Bunday moslashuv texnogen muhit va texnogen mahsulning ko'lamiga qarab dastlab biologik ko'rinish kasb etgan bo'lsa, keyinchalik u tez o'zgarib va rivojlanib borayotgan industrial davrda ijtimoiy ko'nikma tarzidagi sifat kasb etmoqda. Bu davrda antropogen ta'sir ostida tez o'zgarayotgan ekotizm sharoitiga inson organizmi moslasha olmayapti. Bu esa, o'z navbatida, aholi salomatligi holatiga tabiiy ekologik omilga nisbatan ijtimoiy omillarning kuchliroq ta'sir etishiga sabab bo'lmoqda.

Makon ijtimoiy zichligining ortib borishi ushbu ta'sirning ko'lamiga mutanosibdir. Hududning sanoatlashuvi va shaharlashuvi, transport to'rining zichligi, ishlab chiqarishning mujassamlashuvi va texnologik qurollanish darajasi, aholi joylanishi, antropogen va texnogen bosimi makonning nozogeografik turlanishiga olib keladi. SHahar joylarda shovqin tebranishning ortishi stress holatining shakllanishiga turtki bo'lmoqda. Umuman olganda, ijtimoiy omil yoki

muhit tabiiy-ekologik sharoit bilan birgalikda muhim ta'sir etuvchi kuchga aylangan.

Aholi ijtimoiy hayotining rang-baranglashuvi turlicha salbiy odat va an'analarning rasm bo'lishi, inson fiziologik mehnatining katta qismini texnikaga yuklanishi, mutaxassislarning ta'kidlashicha, inson ekologiyasi muhitini salbiy tomon rivojlanishiga sabab bo'lmoqda. Xususan, ortiqcha ovqatlanish, chekish, ichish, kam harakat, elektrotexnika va elektron vositalardan ko'p foydalanish va xokazolar inson immun tizimini asta-sekinlik bilan zaiflashtira borishi allaqachon o'z isbotini topgan.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning aksariyatida xo'jalik sohalarining ekstensiv tarzda olib borilishi tabiiy muhitning izdan chiqishiga, ijtimoiy muammolarning yanada chuqurlashuviga olib kelmoqda. SHunday mintaqalar qatoriga O'rta Osiyo mamlakatlari ham kiradi. Ayniqsa mintaqaning Orol bo'yida hamda tog'-kon, metallurgiya, kimyo sanoati taraqqiy etgan hududlarda ekologik sharoit yanada yomonlashgan. Mintaqaning ekstraarid cho'l sharoiti aholi turmush-tarziga ma'lum darajada qiyinchilik tug'dirishi bilan birga inson ta'sirida kuchli degradatsiyaga uchramoqda.

Mintaqa aholisining salomatligi va ijtimoiy faoliyatining salbiylashuvida Orol dengizi fojeasi asosiy o'ringa ko'tarilmoqda. Dengizning 500 km radius qismidagi atrofi jahon hamjamiyati tomonidan (Qizilo'rda, 1993; Nukus, 1994; Toshhovuz, 1994; Almati, 1997 konferentsiyalari va b.) «ekologik fojea» hududi deb e'tirof etilgan. Namangan viloyati ham bevosita ushbu hudud doirasida joylashgan.

Ekologik sharoitning o'zgarishi, aholi sonining ortishi, chuchuk suv ta'minotining yomonligi va boshqa omillar viloyatda, keyingi yillarda qator ijtimoiy-ekologik xarakterdagi muammolarni keltirib chiqarmoqda. SHu bois:

- aholi salomatligiga ekotizimning ta'siri hamda uni o'rganishning geografik masalalarini tadqiq qilish;
- aholining demografik rivojlanish xususiyatlarini o'rganish;

- viloyat aholisining takror barpo bo'lishi jihatlarini geoekologik nuqtai nazardan tahlil etish;
- Namangan viloyati tumanlarida aholi salomatligining holati, bolalar kasallanishi va o'limi ko'rsatkichlari hamda ularni shakllantiruvchi omillarni o'rganish;
- viloyat sanitariya-epidemiologiya holati va aholi salomatligini yaxshilash muammolari hamda istiqbol yunalishlarini tadqiq etish dolzarb masalalardan sanaladi.

1.2. Aholi salomatligini geografik o'rganishning uslubiy asoslari

Tabiatda turli xil landshaft ko'rinishlari quruqlik va suvliklar, sahro va o'rmonlar, tog' va tekistliklar mavjud bo'lib, ularning barchasida insonlar o'ziga xos faoliyat ko'rsatadilar. Har bir landshaft doirasida tashqi muhit omillarning u yoki bu turi inson jismiga ko'proq ta'sir ko'rsatadi.

Abu Ali ibn Sino ham kasalliklarning kelib chiqishi sabablarini aniqlashda va davolashda tashqi sharoitning (iqlim, ob – havo, turar-joy, ovqatlanish) ta'siriga alohida e'tibor qaratgan edi.

O'rta Osiyo hududida yashab ijod qilgan mashhur tabiblar, jumladan, Abu Bakir ar Roziy asarlarida kishilarda uchraydigan kasalliklarning aksariyat qismi uning yashash joyi bilan bog'liqligi qayd etilgan. U hatto kasalxonalar qurilishida joyning iqlimi, joylashgan o'rni kabi jihatlariga e'tibor berish zarurligini ta'kidlagan. SHuningdek, tibbiyot ilmining asoschisi Gippokrat o'z asarlarida turli makon va manzillarda yashovchi kishilar salomatligini baholashda mazkur joyning iqlimi, suv va tuproq tarkibi, o'simlik va hayvonot dunyosi katta ahamiyat kasb etishini alohida izohlab o'tgan. Olimning ta'kidlashicha, inson umumiy tabiat olamining bir qismi bo'lib, uning tashqi tuzilishi va ichki ruhiyatini shu tabiat shakllantiradi. Bu haqda Gippokrat shunday deb yozgan edi. «Odam jismining tabiatini tashqi muhit belgilaydi. Jamiyat esa o'z qonun qoidalari bilan odam tabiatini o'zgartirishi mumkin. »

SHunga o'xshash fikrlar vatandoshimiz Abu Rayhon Beruniy tomonidan ham ilgari surilgan. Uning yozishicha «Odamlar tuzulishlarining rangi, surati, tabiat va axloqi turlicha bo'lishi faqatgina nasablarning turlichaligidan emas, balki tuproq, suv, havo va yerning, kishilar yashaydigan joylarning turlichaligidan hamdir. »

Inson salomatligi va ular orasida uchraydigan kasalliklar hududiy tafovutlarga ega. XVIII- asrda yashab ijod qilgan frantsuz olimi Monteskye o'zining «Qonunlar ruhi to'g'risida» nomli asarida «Iqlimning hukumronligi barcha kuchlardan ustunroqdir» degan shiorni olg'a surgan ekan.

XIX-asrning oxiri 20-asrning boshlaridayoq tibbiyot mekiorologiyasi sohasida rus iqlimshunoslari A.I.Voeykov, A.P.Sokolov, A.A.Kaminskiy kabi olimlar tadqiqotlar olib borishgan. Ayniqsa, bu xususda tibbiyot geografiyasida iqlim bilan bog'liq masalalarni o'rganishda rus olimi A.S.Berg tomonidan ishlab chiqilgan, iqlimning sinflarga ajratilgan tavsifi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Olim tibbiy geografik jihatdan mamlakat iqlimini 12 tabaqaga ajratgan. U iqlim va ob – havoni sinflarga ajratish orqali salomatlikning hududiy jihatlarini o'rganishga ham e'tibor bergan. Ob – havoning iqliga nisbatan inson jismiga ta'sirini sezilarli, ya'ni ob – havoning tez – tez o'zgarib turishi bilan inson jimida ma'lum ma'noda o'zgarishlar sodir bo'lib turadi, ayniqsa buni ba'zi a'zolarimiz juda tez seza oladi. SHuningdek ob – havodagi ayrim jiddiy o'zgarishlarni ba'zi kasalliklarga (bod, radikulit, revmatizm, qon bosimi xastaliklari) ga chalingan kishilar ancha oldinroq payqaydilar.

Joylarning rel'ef xususiyatlari ham inson salomatligini belgilovchi muhim omillardan biridir. Baland tog' mintaqalarida o'z nomi bilan «Tog' kasalligi» deb ataluvchi kasallik keng tarqalgan bo'lib, u haqidagi dastlabki ma'lumotlar ispan sayyohi Akosta tomonidan yozib qoldirilgan. Uning yozishicha, 1590- yil And tog'lari bo'lib sayohat chog'ida 4500 metr dengiz satxidan balandlikda hamrohlari orasida qandaydir kasallik yuzaga kelganligi, ularning yurak urushlari o'zgarib, bosh aylanish, nafas siqishi, burunlarning qonash va quloqlarning shang'illashi

kabi xolatlar kuzatilgan. Bu tog' kasalligi bo'lib, u faqatgina 1887- yilda frantsuz olimi Bert tomonidan aniqlandi va uning bosh sababi kislorod yetishmovchiligi ekanligi qayd etilgan. Past tog'lar (750- 1000m) va o'rtacha tog'lar (1000 – 2500) dam olishda, turizm va ba'zi kasalliklarni qimmatli ahamiyatga ega.

Alpda tog' kasalligi 2500 m dan, Kavkaz tizmasida 3000 m, Himolayda esa 4000 m dan boshlanadi.

Demak, kasalliklar ham o'ziga xos balandlik (gipsometrik) zonallik xususiyatiga egaki, buni ijtimoiy geografik tadqiqotlarda e'tiborga olish zarur. Tog'li o'lkalarda yashovchi kishilar orasida tog' kasalligidan tashqari quyosh urushi, oftalmiya, endemik buqoq singari xastaliklar ko'p uchraydi.

Dengiz va boshqa yirik suv havzalarida faoliyat ko'rsatuvchi kishilar orasida esa ko'pincha «dengiz kasalligi» deb nomlanuvchi xastalik keng uchraydi.

O'rmon (Tayga) hududlarda ham o'z nomi bilan «o'rmon kasalligi» deb nomlanuvchi kasallik ko'p uchraydi. Bunda kishi jismida har xil ruhiy holatlar, karaxtlik, tinimsiz uyqu va boshqa jarayonlar kuzatiladi.

CHo'l va unga yondosh hududlar ham o'ziga xos xususiyatlari bilan inson jismiga ma'lum holatda ta'sir ko'rsatadi va shu yer uchun mos xastaliklarni keltirib chiqaradi. Mazkur hududlar havo harorati va bug'lanishning yuqoriligi, nisbiy namlikning pastligi bilan tavsiyalanadi. Aslida inson jismining hayoti uchun 18 – 21^oS li havo harorati va 40 – 60% li nisbiy namlik qulay hisoblanadi. Doimiy yuqori harorat va namlikning ma'lum me'yorda bo'lmasligi kishi tanasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu hol o'z navbatida asab va garmonal tizimlar bilan bog'liq xastaliklarni, qon – tomir kasalliklarini keltirib chiqaradi. Bunday sharoitda ko'pincha darmonsizlanish, alahlash, chidab bo'lmas tashnalik belgilari bilan ajralib turuvchi «CHo'l kasalligi» ko'p uchraydi.

«CHo'l kasalligi»ga chalinish oqibatida ruhiy xastaliklar ham yuzaga kelishi mumkin. Jumladan, tropik mamlakatlar aholisi orasida astiniya kasalligi tarqalgan va uning vujudga kelishi mazkur hududlar tabiiy sharoiti bilan uzviy bog'liqdir.

Issiq o'lkalar tabiati va ularning inson salomatligiga ta'siri haqida Ibn Sino asarlarida ham uchratish mumkin. Issiq o'lkalarda odam tanasining qoramtirliigi, sochlarining jingalakligi, havoda namlikning ko'p bug'lanishi natijasida keskin kamayib ketishi inson jismining tez qarishiga olib kelishini ta'kidlagan edi. Tabib balandlik yoki pastlikda joylashgan hududlar aholisining doimiy issiqlik va dimlikda yashashlari, bunday o'lkalarda sho'rxok va botqoqliklarning ko'pligi sababli suvlar tarkibi ham salbiy xususiyatlarga ega ekanligini batafsil yoritib bergan.

Inson salomatligini belgilashda joylarning tuproq xususiyatlari ham yetakchi ahamiyatga ega. Chunki, tuproq tarkibida doimiy ravishda kasallik tug'diruvchi bakteriya va mikroorganizmlar hayot kechiradi. Tadqiqotlarga ko'ra, 1 gr tuproq tarkibida mingdan bir necha milliongacha mikroorganizmlar hayot kechirishi aniqlangan.

Tuproq - turli xil mikroorganizmlar uchun makon hisoblanadi. Inson organizmiga tuproqning ta'siri o'simliklarda parazitlik qiluvchi mikroorganizmlar orqali amalga oshadi. O'lat, tulyaremeya, gangrena singari ko'plab kasalliklarni tashuvchilar aynan tuproqda yashaydi.

Buyuk rus olimi tuproqshunosi Dokuchaev tuproqni o'rganish orqali tibbiyot geografiyasi rivojiga salmoqli xissa qo'shdi. Olim «tuproq va uning tarkibi, radioaktivlik holati, unda o'suvchi o'simliklar dunyosi – mazkur hududda yashovchi populyatsiyalar (hayvonot olami, insonlar) salomatlik darajasiga o'z ta'sirini ko'rsatadi» degan edi. Darhaqiqat, kishilar salomatligiga hududlarning radiatsiyasi holati ham muhim ta'sir ko'rsatadi. Radiatsiya miqdorining yuqoriligi esa qator kasalliklarni jumladan, xavfli o'sma xastaliklari, (ayniqsa, oq qon kasalligi) salmog'ining keskin ortishiga sabab bo'ladi.

Tuproqlarni tibbiy jihatdan muhofaza qilish muhim ahamiyatga ega. Chunki ifloslangan tuproqlar ko'plab kasalliklarning nozogeografik o'chog'i hisoblanadi. Bunda: ichak infeksiyalari – ich terlama, vabo, ichketar; zoonozlar – burtselez, sibir yazvasi; chang tufayli yuzaga keluvchi infeksiyalar – tuberkulyoz, yiringli

kasalliklar; tuproqda ko'p uchraydigan mikroblar – gazli changrena singari kasalliklarni tuproq orqali tarqalishi ko'pchilikka ma'lum.

Aytish lozimki, tuproqlarning ifloslanish jarayoni o'z – o'zidan suvlarning ifloslanishiga ham olib keladi. Tuproqdagi barcha mikroelementlar inson organizmiga suv orqali o'tadi. SHuning uchun yirik aholi manzilgohlarida ichimlik suvi doimo xlor eritmasi bilan qayta ishlanadi.

A.P. Venogradov tadqiqotlaridan shu narsa ma'lumki, inson organizmi bir kecha kunduzda 120gr yod qabo'l qilishi kerak, shundagina organizmning me'yoriy fiziologik ehtiyoji qondiriladi. SHundan 70 gr o'simliklardan va 40 grammi esa hayvon mahsulotlaridan olinadi.

A.P. Venogradov nazariyasiga ko'ra, tog'i va kulrang tuproqli hududlarda yod tanqisligi mavjud bo'lib, shu tufayli bunday mintaqalarda zaruriy tadqiqotlar olib borish qayd etiladi.

Suv bilan bog'liq yana shunday kasalliklardan biri urolitioz kasalligi bo'lib, u ko'proq suv tarkibida kremniy miqdorining ko'pligi bilan izohlanadi.

Ma'lumki, ko'plab yuqumli kasalliklar, ularning vujudga kelishi va rivojlanishi suv manbalari bilan uzviy bog'liq. Vabo, ichterlama, ichketar, bezgak, sariq kasalligi singari qator ichak infeksiyalarining tarqalishida suv asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Inson yashaydigan «oykumena» murakkab takrorlanmas ekologik sharoitga ega geotizimlar majumasidan tashkil topgan. Ularning differentsiatsiyasi, turlanishi makonda insonning faoliyati yashash sharoiti va tarzining o'zgarishiga sababdir. SHu qatorda aholi salomatligining o'zi yashab turgan muhit bilan mushtarak tomonlari tibbiyot sohasidagi tadqiqotlar doirasidan chetda qolmagan.

Atrof-muhit haqidagi bilimlarning to'planib borishi bilan tabiatning inson hayotida naqadar katta ahamiyat kasb etishi ma'lum bo'lib borgan. Ijtimoiy taraqqiyotning ilk davrlarida inson tabiatining bir bo'lagi ekanligini, tabiiy sharoit uning salomatligi hamda ijtimoiy hayotida katta o'rin egallashini his etgan. Vaqt o'tishi bilan to'plangan hayotiy tajriba esa uni isbotlagan. Xususan, ilk dinlarda

aholi ijtimoiy hayotiga ta'sir etuvchi biotik va abiotik omillarga bo'lgan munosabat, ularning ilohiylashtirilishi yoki turmush-hayotga singdirishi bunga dalil bo'la oladi. Masalan, O'rta Osiyoda dastlab vujudga kelgan zardushtiylilik dinida inson hayotida eng kerakli bo'lgan tabiat unsurlarining ifloslanishini taqiqlovchi madhiyalar mavjud bo'lib, hatto dafn marosimida olovdan foydalanilgan. Iqlimning hozirgi vaqtga nisbatan biroz namroq va issiqroq bo'lishi epidemik kasalliklarni tez tarqalishiga sabab bo'lgan.

Tabiiy muhitning o'ziga xos xususiyatlari, yuqorida ta'kidlanimizdek, aholining ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati va salomatligida katta o'rinni egallaydi. Tibbiyot ilmining asoschisi Gippokrat, rimlik tabib Galen, vatandoshimiz Abu Ali ibn Sinolar ham o'z asarlarida buni alohida ta'kidlashgan. Gippokrat o'z asarlarida turli makon va manzillarda yashovchi kishilar salomatligida mazkur joyning tabiiy sharoiti, suv va tuproq tarkibi, o'simlik va hayvonot dunyosi kabilar katta ahamiyat kasb etishini ta'kidlab o'tgan. SHu bilan birga turli sabablar ta'sirida aholining ma'lum joyda keragidan ortiqcharoq to'planishi natijasida (masalan, urushlar, tabiiy ofatlar davrida) sanitar-gigienik zo'riqishning vujudga kelishi va uning epidemik kasalliklarni kelib chiqishining asosiy sababi ekanligini ta'kidlagan. Ushbu qarashlari bilan u ijtimoiy masalalarning aholi salomatligiga ta'sirini ilk marotaba izohlashga uringan.

Borliq va tabiiy sharoitning inson ruhiyati va tuzilishga ta'siri, uning ushbu tizimdagi o'rni doim ilmiy-falsafiy mushohadalar markazida bo'lib kelgan. Ekotizimning inson turmush tarzi va salomatligiga ta'siri qator olimlar tomonidan ob'ektiv tarzda izohlangan. Xususan, Abu Ali ibn Sino kasalliklarning kelib chiqishini, eng avvalo, yashash muhitning sharoitidan izlashni va ba'zi kasalliklardan davolanish uchun yashash joyini o'zgartirish hamda sayohat qilishni tavsiya etgan.

1.3. Axoli salomatligi darajasini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar.

Nozogeografiya yoki inson kasalliklari geografiyasi tibbiyot geografiyasining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, u yer sharida tarqalgan kasalliklar, ularni vujudga keltiruvchi sabab va qonuniyatlarini o'rganadi. Bu boradagi ilmiy izlanishlar XVIII asrda boshlangan. Olib borilgan tadqiqotlarning asosiy qismi insonlarda uchraydigan ayrim kasalliklarga xususan yuqumli - parazitlar kasalliklarga qaratilgan. Ushbu tadqiqotlar XVIII – asr boshlarida tibbiyot geografiyasining alohida bir yo'nalishi sifatida yuzaga keldi.

Davrlar o'tishi bilan kasalliklarning vujudga kelish va tarqalish sabablarini Aniqlashga maxsus nazariy va amaliy tadqiqotlar amalga oshirildi. Masalan, sobiq Ittifoq davrida mazkur tadqiqotlar o'lka parazitologiyasi, landshaftepidimiologiyasi, epidemik geografiya, geogelmentologiya va boshqa ilmiy yo'nalishlar doirasida amalga oshirildi.

Bu borada asosiy izlanishlar Ye.N. Pavlovskiy, K.N. Skryabin, G.Ya. Zmeev. V.Ya. Podolyan kabi olimlar tomonidan olib borildi.

Inson kasalliklari geografiyasi masalalarni hal etishda XVIII – xalqaro geografiya kongressining tibbiyot geografiyasi seksiyasi muhim o'rin tutdi. Ushbu kongress 1956 yil avgust oyida Reo de – Janeyro shahrida bo'lib o'tdi. Kongressda xalqaro potologik geografiya jamiyati «Kasalliklaor va geografik muxit o'rtasidagi aloqadorlik » ni o'rganish g'oyasini ildgari surdi. Rak kasalligining geografik tarqalishini o'rginshi Bilan xalqaro raka qarshi ittifoq shug'ullandi. Nozogeografiyaning asosiy vazifasi insonlarda uchraydigan kasalliklar tarqalishining umumiy geografik qonuniyatlarini Aniqlash, alohida kasalliklar nozokompleks va nozoariyallari ularning dinamikasini tadqiq qilishdan iborat. Hozirgi vaqtda nozogeografiya tibbiyot geografiyasining muhim yo'nalishi sifatida qator masalalar Bilan shug'ullanadi:

Jumladan u:

- inson kasalliklar geografiyasining nazariy, uslubiy asoslarini o'rganadi.

- inson kasalliklarining vujudga kelishi va geografik tarqalishda tabiiy va ijtimoiy – iqtisodiy omillar ta'sirini baxolaydi;
- ayrim kasalliklar geografiyasi qonuniyatlarini o'rganadi va tegishli nozogeografik kartalar tuzadi;
- nozogeografiya insonlarda uchraydigan turli kasalliklarning hududiy majmua va nozoarealrini tadqiq etadi;
- nozogeografik vaziyatni baholash asosida uni yaxshilashning asosiy yo'nalishlarini bashorat qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, nozogeografiya sohasidagi tadqiqotlar dastavval insonlarda uchraydigan yuqumli kasalliklarga qaratilgan. Sobiq ittifoqda mazkur tadqiqotlarning asosiy qismi tabiiy o'choqlar, transmissiv kasalliklar va gelmintozlar ustida olib borildi. Bu borada akademik Ye.N. Pavlovskiyning xizmatlari kata bo'lgan.

Nozogeografiyada keng (qamrovli), kata hududlarni egallovchi kasalliklar evrixor kasalliklar deyiladi.

CHegaralangan areallardagina tarqalgan kasalliklar (mahalliy kasalliklar) ham deyiladi. «stenoxor» (grekcha «stenoks» - tor). Yuqumli kasalliklarning deyarli barchasi uchun lokal (mahalliy) turdagi areallar xosdir. Yuqumli bo'lmagan kasalliklarning ko'pchilligi esa evrixor kasalliklar hisoblanadi.

L.M. Goromoshevskiyning fikricha, yuqumli kasalliklar o'chog'i deb infektsiya manbai turgan joy bilan uning atrofidagi hududning mazkur Aniq vaziyatda Ushbu manba tomonidan infektsiya tarqala oladigan qismi tushuniladi. Tabiiy jarayonlar infektsiya yuqishida muhim rol o'ynaydi.

Epidemik jarayonning o'tishiga tabiiy omillardan ko'ra ijtimoiy omillar ko'proq ta'sir ko'rsatadi.

Tabiiy geografik tadqiqotlarda hududlarning nozogeografik vaziyat nuqtai nazaridan tahlil etish ham chuqur ma'no kasb etadi. Nazogeografik holat yoki vaziyat eng avvalo ma'lum birj oy yoki hududda aholining o'lim darajasi, jumladan bolalarning o'lim ko'rsatkichlari, o'rtacha umr ko'rish va umumiy

kasallanish darajasi, ayrim guruh kasalliklar o'choqlari yoki areallarini ng mavjudligi Bilan tavsiflanadi.

Nozogeografik vaziyat, o'z navbatida, demografik va ekalogik holat Bilan chambarchas bog'liq. U ushbu hudud yoki mamlakatning umumiy ijtimoiy holati, aholining yashash darajasini ham belgilab beradi.

Aholi salomatligiga ta'sir etuvchi omillar hududiy xususiyatlarga ega. Zero, Yer yuzasi hududlari relʼefi, tabiiy sharoiti, iqlimi, iktisodiy va demografik sig'imi, ekologik tizimi bilan bir-biridan farqlanadi. Uning o'zaro butunlay o'xshash joyi umuman yo'q. SHu sababli aholi salomatligiga ta'sir etuvchi omillar ham turlanadi. Inson yashash joyida ekotizimning ma'lum bir to'ldiruvchi va uni o'zgartiruvchi sifatida ishtirok etadiki, ushbu hol hududda uning fiziologik va ijtimoiy hayotiga ta'sir etuvchi omillarni guruhlanishiga sabab bo'ladi.

Aholi salomatligiga ta'sir etuvchi omillar tahlili shuni ko'rsatadiki, ular majmuali holda birgalikda amal qiladi. Tabiiy komponentlarning ko'pchiligi turli kasalliklarning vujudga kelish muhiti bo'lib xizmat qiladi, ayrimlari ularni tashuvchi-vositachi vazifasini bajaradi. Dastlab aholi salomatligiga ta'sir etuvchi omillar sof tabiiy–ekologik xususiyat kasb etgan bo'lsa, jamiyat rivojlanishi bilan ijtimoiy ekologik muammolar oldingi o'ringa chiqdi. Ijtimoiy-ekologik omillarning xususiyati va turlanganligini belgilovchi eng asosiy bo'g'in bu-mamlakatlarning rivojlanganlik, aholining milliy birlik sifatida shakllanganligi darajalaridir.

Jahonning turli mintaqalarida mamlakatlar iqtisodiyotining rivojlanganligi tabiiy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi bilan bog'liq holda turli kasalliklar kelib chiqmoqda. Ular ancha murakkab bo'lsada, qator kasalliklar avvalgi davrlarga nisbatan qisqa fursatda butun dunyoga tarqalishi mumkin. Ko'pchiligi esa o'z xususiyatiga ko'ra lokal (mahalliy) yo'nalishga ega. Masalan, Markaziy va Janubiy Afrikada, Karib havzasi va Markaziy Amerikada «kvashiorkor» deb nomlangan kasallik tarqalgan. Ushbu kasallikning asosiy sababi ozuqa tarkibida oqsillarning yetishmasligidir. X. Kolumb Vest Indiyadagi sayyohati chog'larida

mahalliy aholining ovqatlanishi ratsioni juda kambag'alligi va qator noma'lum kasalliklar ko'pligini qayd etgan.

Aholi salomatligi, yuqorida ta'kidlaganimizdek, jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi bo'g'inlardan biridir. O'z navbatida jamiyatning ma'lum bir rivojlanish bosqichida erishgan yutuqlari va aholining moddiy ahvoli uning salomatligini belgilovchi omillar sirasiga kiradi. Binobarin, aholi salomatligi ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi.

Aholi salomatligi, ko'rib o'tganimizdek, hududning ekologik tizimi bilan chambarchas bog'liq bo'lishiga qaramasdan, uni geografik o'rganish masalalari yaqin o'tmishda boshlangan. Aholi salomatligi va unga ta'sir etuvchi omillar yoki to'g'rirog'i joyning nozogeografik sharoitini tadqiq etishning amaliy hamda nazariy masalalarini u yoki bu ko'rinishda o'rganish uzoq tarixiy davrlarga borib taqalsada, uni ilmiy tadqiq etish bo'yicha tizimli ilmiy-amaliy ishlar yaqin-yaqinlardan amalga oshirila boshlandi. Jamiyat taraqqiyoti bilan tibbiyot va biologiya, ekologiya hamda geografiya sohalaridagi ilmiy ma'lumotlarning miqdor va sifat jihatdan mukammallashishi ro'y bergan. Aholi salomatligini mintaqaviy jihatlariga e'tibor bevosita bu boradagi daliliy ashyolarni to'plana borishi bilan bog'liqdir. Geografiyaning bir mustaqil bo'g'ini sifatida hozirda namoyon bo'lgan tibbiyot geografiyasi murakkab va uzoq rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Bir nechta fanlar chegarasida shakllangan geografiyaning ushbu tarmog'i hozirda ham o'zining qirraviy xususiyatini yo'qotmagan.

Tibbiyot geografiyasi doirasidagi tadqiqotlar XX asrning ikkinchi yarmidan tez rivojlana boshladi. Fan doirasida aholi salomatligiga ta'sir etuvchi tabiiy va ijtimoiy omillarning hududiy jihatlari tadqiq etiladi. Bunda tabiiy makonning turlanganligi, ijtimoiy-iqtisodiy omillarning hudud ekotizimiga hamda ularning aholi salomatligiga kompleks ta'siri geografik uslub va usullar yordamida o'rganiladi. Tibbiyot geografiyasi tabiiy geografiya, ekologiya, tibbiyot, ijtimoiy-iqtisodiy geografiya va boshqa fanlar bilan yaqindan aloqada bo'ladi. Aholi salomatligini hududiy jihatlarini o'rganish masalalari xuddi ekologiya fanining

ijtimoiylashib borgan singari chuqurlashib, tadqiqot ob'ekti va predmeti takomillashib bormoqda. Dastlab fan sohasida tadqiqot olib borgan olimlar (Ikavitits, Masako va boshq.) fan ob'ekti sifatida faqat aholi salomatligiga ta'sir etuvchi tabiiy omillar va kasalliklar tarqalishini (nozogeografiyasini) o'rganish deb qarashgan bo'lishsa, hozirda u inson ijtimoiy sharoiti va munosabatlarining yuqoridagi omillar bilan birgalikda tadqiq etishni ham qamrab olmoqda.

Fan rivojlanish davrida yuqoridagi qarashlarga mos holda aholi kasallanishining hududiy jihatiga avvallari tabiiy geografiya fanlari tizimida qaralgan. Keyinchalik kasalliklar, ayniqsa yuqumli kasalliklarning tarqalishida sotsial jarayonlarning ham o'rni katta ekanligi ma'lum bo'lishi bilan u iqtisodiy va ijtimoiy geografiya blokiga o'tkazilgan.

Dastlabki davrdagi tadqiqotlar kompleks amaliyotlar orasida olib borilgan. Masalan, biror bir hududda bajarilgan kompleks tadqiqotlarda joyning nozogeografik holati aholi o'rtasida tarqalgan kasalliklar hamda nozologik sharoitiga ham e'tibor qaratilgan. Ayrim tibbiy geografik tadqiqotlar esa vaziyat taqozasi bilan amalga oshirilgan.

Rus geografiyasining asoschilaridan biri V.N. Tatischev Rossiya hududlari haqidagi statistik ma'lumotlar yig'ishda tibbiy geografik xarakterdagi masalalarni ham inobatga olgan. Xususan, u imperiyaning turli joylariga jo'natgan 198 savoldan iborat so'rovnomasida sof tibbiy geografik yo'nalishdagi savollar ham o'rin olgan.

XVIII asrda uyushtirilgan akademik P.S. Pallas, I.P. Fal'klar boshchiligidagi «akademik ekspeditsiyalar» davomida qozoq dashtlarining nozogeografik sharoiti aholisi salomatligining holati haqidagi dastlabki tibbiy geografik ma'lumotlar ham yig'ilgan.

Rus hamda xorij tadqiqotchilarining tibbiyot geografiyasi doirasida yig'gan ma'lumotlari hamda tadqiqotlarining aksariyati dastlabki davrda yuqoridagi taxlitda bo'lgan. CHunonchi, Akostaning And tog'larining baland qismida

kuzatgan kasalligi, S.P. Krashennikovning Kamchatkada uchraydigan kasalliklar va dorivor o'simliklar haqidagi manbalari tavsifiy xususiyatlarga egadir.

Davr o'tishi, tibbiyot geografiyasi sohasida ma'lumotlar yig'ilib borishi bilan tadrijiy ravishda xususiy tadqiqotlar ham kuchaygan. Fan sohasidagi ilk xususiy tadqiqot esa V.Ya. Gevittning «Kizlyar va uning qal'asi» asaridir. V.Ya. Gevitt imperiya tibbiyot devonxonasi mudiri P.Z. Kondoidi ko'rsatmalari asosida olimlar tomonidan dastlabki to'laqonli tibbiy geografik qo'llanma deb tan olingan yuqoridagi asarini tayyorlaydi.

XVIII asr oxiri va XIX asr boshlaridan Rossiya va xorijda tibbiy topografik, harbiy va ijtimoiy maqsaddagi tadqiqotlar avj oladi. Masalan, G.S. Karelinning Kaspiyorti (Kaspiyning sharqiy qismi) uyushtirgan ekspeditsiyalarida harbiy vrach P.P. Zablotskiy-Desyatovski ishtirok etadi.

XIX asr oxirida tibbiyot geografiyasining nazariy asoslari bo'yicha tadqiqotlar (Girsh, Yu. Ukke, E.X. Ikavitts, G.M. Gernshteyn, P.A. Peskov, I.P. Skvortsov) kuchaydi, fanning asosiy maqsadi va vazifalari doirasida muhim ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi. SHu bilan birga ayrim kasalliklarning hududiy tarqalishi jihatlari ham tadqiq etila boshlandi.

Sobiq Ittifoq davrida tibbiyot geografiyasi har tomonlama rivojlandi. Ushbu davrda tibbiyot va tibbiyot geografiyasi rivojlanishida katta ahamiyat kasb etgan tibbiy geografik qonuniyatlar va hodisalar aniqlandi. Sohada ilmiy ma'lumotlar to'planishi bilan tabiiy omillar asosida bir qatorda ijtimoiy omillarning inson ekologiyasida katta o'rin tutishi ma'lum bo'lib bordi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, XX asrda tibbiyot geografiyasida xususiy tadqiqotlar chuqurlashib bordi. Mashhur tibbiy geograf Ye.N. Pavlovskiy tomonidan transmissiv va yuqumli kasalliklar o'choqlari haqidagi ta'limoti tahsinga sazovordir. Xorijda ushbu davrda Halqaro geografiya jamiyati tibbiyot geografiyasi komissiyasi, Halqaro geografik patologiya jamiyatlari tuzildi. Rivojlangan davlatlarda (AQSH, Angliya, Germaniya, Niderlandiya, Frantsiya, Yaponiya) Geografiya jamiyatining qoshida tibbiyot geografiyasi bo'limlari

tuzildi. Bunday bo'lim hatto qo'shni Qozog'iston Respublikasi geografiya jamiyatining qoshida ham 1963 yilda tashkil etilgan.

Tibbiy geografik tadqiqotlar hozirda tarmoq va hududiy miqyosda takomillashib bormoqda. Tadqiqotlar umumiy miqyosdan xususiylashib, o'rganish ob'ektining hududiy jihatlari chuqurlashmoqda. Makonning tabiiy va iqtisodiy turlanganligi aholi salomatligi va ekologiyasi sohasidagi tadqiqotlar ko'lami va yo'nalishini turli mamlakatlarda farqlanishiga sabab bo'ldi. Jumladan, ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda ushbu fan endi shakllanish bosqichida bo'lsa, jahonning rivojlangan mamlakatlari, shu jumladan, MDH mamlakatlarida ancha taraqqiy etgan.

Ta'kidlash lozimki, aholi salomatligi birgina yoki fakat tabiiy muhit omillari bilan bog'lab o'rganish hozirgi davrda masalani to'laligicha namoyon bo'lishini ta'minlay olmaydi. Chunki, ijtimoiy qobiq, ya'ni noosfera, tabiiy muhit bilan o'ziga xos simbiozlashib bormoqdaki, to'laligicha o'z tabiiyligini saqlab qolgan landshaftning o'zi qolmagan. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, insonning texnogen ta'siri yer sharining inson yashashi uchun noqulay hududlariga ham yetib borgan. Ayni vaqtda, ijtimoiy muhitning rang-barangligi ham aholi salomatligining ijtimoiy va texnogen omillarga ham ma'lum ma'noda bog'lab qo'ymoqda. Ko'p tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, hududning aholi salomatligiga ta'sir etuvchi tabiiy omillari hozirda ijtimoiy-iqtisodiy omillar oldida ikkinchi o'ringa tushib qolgan. Zamonaviy vositalar ma'lum bir joyga tegishli bo'lgan nozologik shaklni qisqa muddatda yer sharining istalgan nuqtasiga olib borishi mumkin. Muhitning «sun'iy lashish» jarayoni davom etayotgan bugunki kunda bemalol ekotizimning rivojlanishini izohlovchi biogeotsenoz tushunchasini «xomotsenoz» iborasi bilan almashlash mumkin.

Rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy ekologik omillar kuchayib bormoqda. Chunki, allergik kasalliklar, psixologik buzilishlar, rak, endokrin kasalliklar, OITS (orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi), irsiy kasalliklar yildan-yilga ko'paymoqda. SHu joyda qayd qilish joizki, ularning aksariyati yangi kasalliklar

bo'lib, ijtimoiy ekologik muammolarning ko'payishi, ekotizimning o'zgarishi bilan safi kengayib bormoqda.

Kasalliklarning yangi turlarini vujudga kelishi, eskilarining yangicha ko'rinish olib borayotganligi bevosita inson ijtimoiy faoliyati ta'sirida ekotizimning o'zgartirila borishi bilan bog'liq. Mutaxassislar aniqlashicha, kasallik tashuvchi va keltiruvchi mikroorganizmlar va hayvonlar muhit yoki yashash sharoitining o'zgarishiga insonga nisbatan tez moslasha oladi. Bunda, ularning gibridlangan hamda mutatsiyaga uchragan yangi turlari, oldingilariga nisbatan kuchliroqlari tarqalmoqda.

Evropalik olimlarning keyingi yillarda olib borgan tadqiqotlaridan ma'lum bo'ldiki, qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishda kimyoviy va biokimyoviy usullardan keng foydalanish oxirgi 40-50 yil davomida oziq-ovqat mahsulotlari tarkibidagi inson organizmi uchun foydali bo'lgan komponentlarni 2-4 marta kamayishiga sabab bo'lgan. SHu bilan birga o'tgan asrda ham qo'l mehnatining katta qismini texnikaga yuklanishi oqibatida aholining kam harakatchanligi hamda yana boshqa turli omillar (ovqatlanish, nojoiz odatlar va x.k.) ta'sirida inson organizmi immuniteti ancha pasaygan. Binobarin, aholining katta qismi tez-tez shifokorlarga murojaat qilishi va dori-darmondan foydalanishi ancha ortgan.

Jahonda rivojlanayotgan mamlakatlarning aksariyatida oziq-ovqat, tabiiy resurslardan nooqilona foydalanish natijasida ekologik muammolar zahirida turli xastaliklar tarqalgan bo'lsa, rivojlangan mamlakatlarda texnogen ta'sir, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlar ostida shakllangan ijtimoiy-ekologik xususiyatli kasalliklarni tarqalishiga olib kelmoqda.

O'rta Osiyo, jumladan O'zbekistonda, tabiiy omillar bilan birgalikda sobiq Ittifoq davrida resurslardan xo'jasizlarcha foydalanilishi oqibatida yuzaga kelgan muammolar inson salomatligiga ta'sir etuvchi asosiy kuchga aylangan. Birgina qishloq xo'jalik yerlarini o'zlashtirish bilan bog'liq holda vujudga kelgan Orol muammosi mintaqadagi ekologik sharoitni jar yoqasiga olib kelib qo'ygan. Orol

bo'yi ekologik fojea mintaqasi doirasida 4,5 millionga yaqin aholi istiqomat qilayotganligini o'ziyoq ushbu tanglikning miqyosini ko'rsatib bera oladi.

Aholi salomatligiga salbiy ta'sir etuvchi ijtimoiy-ekologik muammolar bevosita emas, bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Inson xo'jalik faoliyatining geografik makonda amalga oshirilishi sababli inson organizmiga salbiy ta'sir tabiiy komponentlar orqali uzatiladi. Umuman olganda, ushbu hol va yuqoridagi tahlillar aholi salomatligining xususiyatlari va uning mintaqaviy turlanishi, hududdagi ekologik tizim va tabiiy sharoiti bilan bog'liq, degan xulosani beradi. Bu esa, o'z navbatida, hududni tibbiy geografik jihatdan o'rganishda mintaqa tabiiy sharoiti va komponentlari hamda ekologik tizimini tadqiq etishni talab etadi.

Aholi salomatligi va unga ta'sir etuvchi omillarni tabiiy muhit doirasida o'rganish hozirda tibbiy geografik tadqiqotning dastlabki bosqichida qo'llanilmoqda. Inson ekologiyasi va ijtimoiy ekologiyaning shiddat bilan rivojlanishi hamda fanlar sohasida integratsiyalashuv jarayonining kuchayishi oqibatida aholi salomatligiga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillarga e'tibor kuchaytirilmoqda. Ushbu tadqiqotlar esa haqli ravishda o'z samarasini bermoqda. Insonning ijtimoiy ahvoli, ish sharoiti, yashash tarzi hamda ijtimoiy muhit, psixologik bosimining kuchayishi uning salomatligini belgilovchi asosiy omilga aylantirib ulgurdi.

Aholi harakatidagi farqlar, etnik birliklar ijtimoiy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari tabiiy omillar bilan o'ziga xos simbiozlashgan holda aholi salomatligini belgilovchi asosiy unsur sifatida gavdalanmoqda. Ijtimoiy omillarning inson salomatligiga ta'sirini kuchli ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar davrida aholi salomatligining yomonlashuvi, ayniqsa ruhiy hamda asab kasalliklarini ko'payishida yaqqol ko'rinadi.

Ayni holat tibbiy geografik tadqiqotlarni yanada xususiylashtirish va hududiy miqyosda chuqurlashtirishni talab etadi. Ayniqsa tranmissiv kasalliklar tarqalishi ehtimoli kuchli bo'lgan chegaraviy hududlar, aholi tabiiy ko'payishi ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishidan ancha ilgari ketayotgan mintaqalarda

ushbu tadqiqotlar ijtimoiy vaziyatni baholash va muammolarni o'z vaqtida oldini olishga imkon yaratadi.

O'zbekistonda aholi salomatligini geografik jihatdan o'rganishning boshlanganligiga uncha uzoq vaqt bo'lmadi. Sobiq Ittifoq davrida Farg'ona vodiysini tibbiy geografik o'rganilishi tarixi bo'yicha A.A. Abdullaeva (1960) ish qilgan, xolos. Bu fanning O'zbekistonda rivojlanishi mustaqillik yillariga, A.S. Soliev, X.T.Tursunov, N. Q. Komilova, I.T.Turdimambetovlarning ushbu sohadagi tadqiqotlari bilan boshlangan. SHu bilan birga tibbiyot geografiyasiga yaqin ijtimoiy masalalar bilan Yu.SH.SHodimetov, M.N.Nazarov ilmiy tadqiqotlarida ham o'rganilgan. Ayni vaqtda aholi va ijtimoiy ekologiya sohalarida M.Bo'rieva, O.B. Ota-Mirzaev, X.T.Tursunovlar, kurortologiya yo'nalishida V.A.Akobyan, A.X.Yusupov va A.A.Sobirovlar olib borayotgan tadqiqotlari mazkur ilmiy izlanishga biroz yaqin turadi.

Bevosita tibbiyot geografiyasiga doir ilmiy tadqiqotlar respublikamizda o'tgan asrning 90-yillarida olib borilgan. Masalan, O'zbekiston Geografiya jamiyati 18-jildida tibbiyot geografiyasining ba'zi bir masalalari to'g'risida fikrlar yuritilgan. SHuningdek, o'tgan asrning 80-yillarida O'zFA Geografiya bo'limida SH. Muxitdinov tomonidan tibbiyot atlas (kartografiyadan) bo'yicha tadqiqotlar ham olib borilgan.

Nisbatan yuqori ko'lamdagi ilmiy ishlar asosan nomzodlik dissertatsiyalari doirasida bajarilgan. Bunga, eng avvalo, N.Q. Komilovning nomzodlik dissertatsiyasini misol tariqasida keltirish mumkin. Ushbu tadqiqotni nazariy jihatdan qayta ishlash va kengaytirish asosida N. Komilova va A. Solievning «Tibbiyot geografiyasi» nomli ilmiy monografiyasi nashr ettirilgan.

SHu o'rinda, tibbiyot geografiyasi bilan bog'liq boshqa nomzodlik dissertatsiyalari bajarilganligini ham ta'kidlash joiz. Jumladan H.T. Tursunovning Toshkent shahri urboekologik vaziyatiga bag'ishlangan nomzodlik dissertatsiyasi hamda M.I. Nazarovning aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha himoya qilgan nomzodlik dissertatsiyasida ushbu masalalar qisman tahlil va tadqiq etilgan. I.

Turdimambetov esa aholi salomatligi muammolarini tabiiy geografiya, landshaftshunoslikka asoslangan holda o'rgangan.

Yuqorida ko'rsatilgan tadqiqotlar respublikamizda soha rivojlanishi uchun imkoniyatlar kattaligidan darak beradi. Ayni vaqtda 90-yillar boshida ijtimoiy vaziyatning o'zgarishi ijtimoiy jabhalardagi tadqiqotlarni jadallashtirishni talab etadi.

Tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda, yuqoridagi ko'rsatkichlardan foydalanish asosida o'rganilayotgan hudud doirasida tibbiy-ekologik rayonlar ajratiladi. Bunday rayonlar ko'proq tabiiy xo'jalik integral rayonga o'xshab ketadi va ular iqtisodiy rayonlardan farq qilib, asosan yirik masshtabda, ya'ni quyi darajada ajratiladi. Chunki, ijtimoiy va ekologik muammolar bevosita aholining yashash joyi bilan bog'liq bo'ladi.

SHu bilan birga geografik tadqiqotlarda aholi salomatligini va ayrim kasalliklarning kelajakdagi holatini prognoz qilishda ekspert usulining ham ahamiyati katta. Bunda mutasaddi mutaxassislar, tibbiyot sohasi bilan bog'liq hokimiyat xodimlari, olimlar, sanepidemstantsiya va gigiena mutaxassislarining fikrlari xolisona o'rganiladi. Olingan va umumlashtirilgan xulosalar esa aholi salomatligini yaxshilash chora-tadbirlarini ishlab chiqishda qo'l keladi.

Yuqoridagilardan tashqari, aholi salomatligini geografik nuqtai nazardan tadqiq etishda an'anaviy usullar, jumladan, kartografik, tarixiy tizimli va majmuali yondoshuvlar ham samarali natijalar beradi. Bunday usullardan foydalanishda joylarning ijtimoiy infratuzilma bilan ta'minlanganligi ham hisobga olinsa, tadqiqot ishining amaliy ahamiyati yanada oshadi.

II-Bob: NAMANGAN VILOYATIDA KASALLIKLARNING YUZAGA KELISHI VA NOZOGEOGRAFIK VAZIYATINING EKOLOGIK TAXLILI

2.1. Viloyat hududida ekologik muammolarni keltirib chiqaruvchi manbalar va ularning inson salomatligiga ta'siri

Namangan viloyatida tabiatni muhofaza qilishning o'ziga xos xususiyatlari relief tuzilishi, hududning o'zlashtirish darajasining yuqoriligi, aholi zichligi, yer va suv resurslarining chegaralanganligi bilan belgilanadi. Atrof-muhitni muhofaza qilish tadbirlari avvalo, viloyatning tabiiy resurslarini, atmosfera havosining musaffoligini saqlash, xilma-xil foydali qazilmalarni, yer, suvni (er usti va yer osti suvlari), o'simlik va hayvonot dunyosini (shu jumladan baliqlarni) asrash, ulardan oqilona foydalanish va uni tiklash hamda bilan bog'liqdir.

Namangan viloyatida vujudga kelyotgan ekologik muammolarni tahlil qilib ularni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Atmosfera havosining ifloslanishi
2. Er usti va yerosti suvlarining ifloslanishi
3. Er resurslari bilan bog'liq ekologik muammolar (tuproq sho'rlanishi va eroziyasi, unumdor yerlarning hosildorligini pasayishi, cho'llanish va boshqalar)
4. SHahar xududlarda kommunal chiqindilar bilan bog'liq muammolar
5. Viloyat organik dunyosini saqlab qolish bilan bog'liq muammolar va boshqalar

Viloyatda atmosfera havosini ifloslovchi manbalar transport, sanoat korxonalari va maishiy xo'jaliklar bilan bog'liq. Namangan viloyatidagi 400 dan ortiq atmosferani ifloslantiruvchi manbaga ega bo'lgan korxonalar yiliga 50,0 ming tonna atrofida qattiq, gazsimon va suyuq zararli moddalar chiqaradi. SHundan 30,0 ming tonnasi tozalash qurilmalari orqali tozalanadi va atmosferaga 20,0 ming tonna ifloslantiruvchi moddalar chiqarib yuboriladi.

Namangan viloyatida 2010-yildan 2013-yilgacha deyarli bir xil harakatlanish vositalari tomonidan 81.8 ming tonna zararli moddalar chiqarilgan.

Atmosfera havosini ifloslovchi asosiy vositalar transport hisoblanadi. Transport vositalari sonining yildan-yilga ortib borayotganini hisobga olsak, bu muammolar yanada rivojlanishi mumkin. Zararsizlantirilgan iflos moddalar esa 2007-yilda 7,92 ming tonna, 2009-yilda 7,8 ming tonna, 2013-yilda 7,6 ming tonna tabiatga chiqarilgan. Zararsizlantirilgan iflos moddalar tabiatga tashlash hajmi yildan-yilga kamayib borayotgan bo'lsada, bir yil uchun 7.6 ming tonna hajm juda katta hisoblanadi.

Atrof-muhit muhofazasi bevosita davlat nazorat inspeksiylari tomonidan nazorat qilib boriladi. SHuningdek, tabiat yodgorliklari ham qo'riqlanadi. Namangan viloyatida atmosfera havosining musaffoligini muhofaza qilish sanoat korxonalari, qozonxonalarga chang ushlovchi qurilmalar o'rnatish, havoga chiqayotgan zaharli moddalarni zararsizlantirish va transport orqali havo ifloslanishini kamaytirish kabilardan iborat. Korxonalardan havoga chiqayotgan zaharli moddalarni eng past darajaga tushirish hamda ko'kalamzorlashtirish tadbirlarini amalga oshirish orqali atmosfera havosi musaffoligini saqlash muhim vazifalardan hisoblanadi.

Yer usti va yer osti suvlaridan oqilona foydalanish sanoat korxonalari, maishiy xizmatda foydalanilgan oqova suvlarni tozalash va qayta foydalanish tadbirlari mavjud bo'lib, loyihaviy quvvati $165 \text{ m}^3/\text{kun}$ shundan, 18 tasi biologik tozalash inshooti (quvvati $126,5 \text{ ming m}^3/\text{kun}$), 1 ta kimyoviy tozalash inshooti ($0,1 \text{ ming m}^3/\text{kun}$), 1 mexanik yo'l bilan tozalash ($65,3 \text{ ming m}^3/\text{kun}$) va birlamchi tozalash inshooti ($33,2 \text{ m}^3/\text{kun}$) mavjud.

Norin va Qoradaryo, Sirdaryo, SHimoliy Farg'ona kanali suvlaridan oqilona foydalanish va muhofaza qilish maqsadlarida 1397 gektar muhofaza mintaqasi uchun ajratilgan yerning 250 gektarida daraxtzorlar barpo etilgan. Bunday ochiq suv havzalarini muhofaza qilish tadbirlari Podshootasoy, Kosonsoy, G'ovasoy, CHodaksoy va bir qator suv havzalari mintaqalarida ham amalga oshirilmoqda. Keyingi 100 yildan ortiq davr mobaynida Namangan viloyati iqlimiy xususiyatlari va suv resurslaridagi salbiy o'zgarishlar o'rmon massivlari va

mavjud daraxtzorlarni kesib yuborish kabi salbiy holatlar bilan bog'liqdir. Farg'ona vodiysining shimoliy qismidagi daryolar suv rejimi va iqlimiy xususiyatlarini tartibga soluvchi o'rmon massivlari ikki marta, birinchi marta XIX asr oxiri va XX asr boshlarida bevosita chor Rossiyasi qo'shinlari tomonidan va ularning turli maqsadlarni ko'zlab ish olib borishi natijasida Podshootasoy, Kosonsoy, G'ovasoy, Rezaksoy, CHodaksoy kabi daryo va soylar havzalarida joylashgan, yoshi asrlarga teng o'rmonlarni kesib yuborilishi, ikkinchi marta esa XX asrning 90 yillarida mintaqada mustaqil davlatlarning yuzaga kelishi va Qirg'iziston hududidagi daryo va soylar manbalardagi o'rmonzorlarning o'tin va qurilish maqsadida kesilishi bilan bog'liqdir.



Bugungi kunda viloyatning ochiq suv havzalariga qishloq xo'jalik, sanoat, transport va maishiy xizmat sohalaridan tozalanmagan oqova suvlarning tushishi natijasida oqar suv manbalari turli darajada ifloslanmoqda. Ochiq suv havzalariga tushayotgan oqova suvlarning ham ifloslanishi darajasi bo'yicha ikki guruhga bo'lish mumkin:

1) mineral moddalar bilan ifloslangan oqova suvlar. Ular tarkibi tuzlar, kislotalar, ishqorlar, loy, qum va boshqa mineral moddalar bilan to'yingan bo'ladi. Bu moddalar sanoat oqova suvlarida 40% ni tashkil etadi;

2) organik moddalar bilan ifloslangan suvlar, ularning tarkibida hayvon va o'simlik yog'lari, sabzavotlarning qoldiqlari, teri va qog'oz tsellyuloza sanoati chiqindilari, go'sht-sut ishlab chiqarish korxonalari va konserva, konditer sanoati chiqindilari mavjud bo'ladi va ular suv havzalarini har jihatdan ifloslaydi.

Viloyat hududidagi ochiq suv havzalari sohilbo'yi mintaqalari bilan ta'minlanmaganligi oqibatida SHimoliy Farg'ona, Yangiariq, Katta Namangan, Oxunboboev nomli kanallar va Namangansoy, CHortoqsoy, Kosonsoy, CHodaksoy, Olmossoy kabi soylarni oqova suvlar bilan ifloslanishi olib borilgan tadqiqotlar davomida aniqlandi. Ayniqsa, oqova suvlar tarkibida uchrayotgan kimyoviy unsurlar ichimlik suvi tarkibidagi inson salomatligi uchun zararli bo'lgan kimyoviy elementlar bilan birikib, murakkab birikmalar hosil qilishi natijasida inson salomatligiga katta ta'sir ko'rsatmoqda.

Yuqoridagi salbiy holatlarni oldini olish va bartaraf etish borasida viloyatda bir qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 19 martdagi 2008-2012 yillar davrida "Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash davlat Dasturi to'g'risida"gi 817-sonli qaroriga binoan har yili mamlakatning suv xo'jaligini rekonstruktsiya qilish, kollektor-drenaj tizimlarini tiklash va yangi ob'ektlarni barpo etishga yuzlab milliard so'm va xorijiy valyuta mablag'lari ajratilib, katta hajmdagi amaliy ishlar qilinmoqda. Bu o'z navbatida, 800 ming gektardan ortiq sug'oriladigan maydonda kuchli va o'rta sho'rlangan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash hamda sizot suvlarni pasaytirish, shu tariqa qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini oshirish va suv tejamkorligiga erishish imkonidir.

Namangan viloyatida yuzaga kelayotgan ekologik muammolar ekologik indikatorlar yordamida tahlil qilish orqali yuzaga kelayotgan ekologik muammolarni inson salomatligiga ham salbiy ta'siri aniqlandi. Jumladan, viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi ma'lumotiga ko'ra, sog'liqni saqlash boshqarmasi tizimidagi davolash-profilaktika muassasalariniig 2011-2012 yillar 9 oyida faoliyatn O'zbekiston Respublikasi Prezidentinig 700 hamda 3923-soli

«O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish yanada chuqurlashtirshi Davlat dasturida»gi Farmonlari talablari asosida islohotlarni chuqurlashtirishga qaratildi.

2014 yil 9 oyida viloyatda 6 ta onalar o'limi qayd etilgan bo'lib, intensiv ko'rsatkichi 2013 yil 9 oyiga nisbatai 21.4 dan 16.6 ga kamaygan. Bular Namangan shahrida 2 ta, CHust, Uchqo'rg'on, Norin va Yangiqo'rg'on tumanlarida 1 tadan onalar o'limi xodisasi sodir bo'ldi. Fertil yoshdagi ayollarni sog'lig'ini mustahkamlash, bolalarda o'tkir respirator infeksiyalar va diareya kasalliklarini oldini olish, sog'lom turmush tarzi dasturlarini hayotga tatbiq etish natijasida respublikamizda, jumladan viloyatimizda ham go'daklar o'limini oldini olish bo'yicha muayyai ishlar amalga oshirilmokda. 2014 yil 9 oyida viloyat bo'yicha 371 nafar 1 yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi sodir bo'lib, intensiv ko'rsatkichi 10,5 ga teng bo'ldi. (2013-yilning shu davrida 463 nafar chaqaloq o'lgan, intensiv ko'rsatkichi 12.5 ni tashkil qilgan). 1 yoshgacha bolalar o'limi o'tgan davrga nisbatan kamaygan bo'lsada, quyidagi tumanlarda hamon yuqoriligacha qolmoqda. Viloyat ko'rsatkichidan yuqori Kosonsoy tumanida 14,6, (2011 yil 9 oyida 15,1) Namangan shahrida 13,5 (2011 yil 9 oyida 3,8), Uychi tumanida 11,4 (2011 yil 9 oyida 13,9), Norin tumanida 31,0 (2011 yil 9 oyida 14,0)ga to'g'ri keldi.

Viloyat bo'yicha esa 4617 nafar vrach va 22811 nafar o'rta tibbiyot xodimlari mavjud bo'lib, har 10000 aholini vrachlar bilan ta'minlanishi 18,9 ni, (2013 yil 9 oyida 19,9) o'rta tibbiyot xodimlari bilan ta'minlanishi 93,2 ni (2011 yil 9 oyida 96,9) tashkil kildi. Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish va sog'liqni saqlash muassasalarida olib borilayotgan ijobiy ishlar natijasida, xususiyl sektorini rivojlanishi hamda aholini o'sishi hisobiga vrachlar bilan ta'minlanish ko'rsatkichi pasayib bormokda. Viloyatda jami 305 ta ambulatoriya poliklinika muassasalari bo'lib, ularning 258 tasi mustaqil muassasa hisoblanadi. Ambulatoriya-poliklinika muassasalariga qatnov 13 mln 435 ming 374 tani tashkil qilindi, bir aholini o'rtacha qatnovi viloyat bo'yicha 5,5 ga to'g'ri keladi. (2011 yil 9 oyida qatnov 14 mln 138

ming 510 tani tashkil qilib, bir kishigiga qatnov 6.0 ga teng bo'lgan). 2012 yil 9 oyida CHortoq tumanidagi shahar vrachlik punkti qishloq vrachlik punktiga aylantirildi. Jami tashkil etilgan QVPlar soni 243 taga yetdi.

Birlamchi kasallanshn esa har 100000 aholiga nisbatan 34315,5 ga teng bo'ldi. (2013 yil 9 oyida 38841,4). Birlamchi kasallanish strukturasida birinchi o'rinda nafas olish a'zolar kasalliklari 29,9 %, ikkinchi o'rinda qon va qon yaratpsh a'zolari kasalliklari 24,2 % ni, uchinchi o'rinda, jarohatlanishlar 8,0% turibdi.

Sil kasalligi bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib, dunyo miqyosida o'lim va nogironlnkka olib keluvchi sabablardai biri bo'lib qolmoqda. Viloyatda silga qarshi kurash ishlari O'zbekistoi Respublikasi Sog'liqni Saqlash vazirligining 1993 yilgn 591-sonli, 1995-yilgi 552-sonli buyruqlari va DOTS dasturi asosida olib borilmokda. Vidoyatda sil kasalliklarini statsionar sharoitida davolovchi 9 ta muassasa bo'lib, faol sil kasallnklarshsh davolash uchun 685 ta shifo o'rinlari mavjud. Sil kasalligi bilan kasallanish xar 100 ming aholiga 48,6 ni (2013 yil 9 oynda 49,8 tashknl qildi. Viloyat ko'rsatkichidan yuqori Mingbuloq tumanida 68,3, Uychi tumanida 56.1, Norin tumanida 51,9 va Namangan tumanida 57,8 ni tashkil qiladi.

Viloyat aholisiga teri-tanosil kasalliklarn xizmati O'zbekiston Respublnkasn Sog'liqni Saqlash Vazirlngining 1998 yil 20 sentyabrdaga 660-sonln buyrug'i asosida 90 o'rinli viloyat teri-tanosil kasalliklar dispanserida hamda markaziy tuman shifoxonalaridagi 234 o'rinli ixtisoslashtirilgan bo'limlari hamda 11 ta shahar va tumanlaridagi teri-tanosil kasalliklari joylarda viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi tomonidan tasdiqlangan reja asosida olib borilmoqda. Ijtimoiy axamiyatga ega bo'lgan kasalliklardan o'sma kasalliklar bilan kasallanish har 100 ming aholiga 43,2 (2011 yil 9 oyida 47,3). Kasalliklarnn nozologik birliklar buyicha tahlil qilinganda oshqozon raki birinchi o'riida 8,1% ni, sut bezi raki ikkinchi o'rinda 7,4% ni, bachadon buyni raki uchinchi o'rinda 6,5% ni, xavfli limfomalar to'rtinchi o'rinda 5,6% da turganlngi maълum bo'ldn. Viloyat

ko'rsatkichidan yuqori Namangan shaxrida 49,2, Kosonsoy tumanida 46,1, CHust tumanida 44,3 va CHortoq tumanida 44,0 in tashkil qilmoqda.

2014 yil 9 oyida viloyat bo'yicha yuqumli kasalliklardan virusli gepatit bilan 2189 nafar bemor kasallangan bo'lib, birlamchi kasallanish ko'rsatkichi 2013 yil 9 oyiga nisbatan intensiv ko'rsatkich 98,4 dan 90,7 ga kamaygan. Viloyat ko'rsatkichidan yuqori Namangan shaxrida 189,2, Kosonsoy tumanida 97,7ni tashkil kildi.

2014 yil 9 oyida virusli gepatit «A» bilan 2173 nafar bemor kasallangan bo'lib, birlamchi kasallanish ko'rsatkichi 2013 yil 9 oyiga nisbatan 97,8 dan 90,1 ga kamaygan. Viloyat ko'rsatkichidan yuqori Namangan shaxrida 188,6, Kosonsoy tumanida 97,7 ni tashkil kildi. 2014 yil 9 oyida virusli gepatit «V» bilan 13 nafar bemor kasallangan bo'lib, birlamchi kasallanish ko'rsatkichi 2013 yil 9 oyiga nisbatan 0,6 dan 0,5 ga kamaygan. Viloyat ko'rsatkichidan yuqori Mirdal tumanida 2,7 Pop tumanida 1,6 va Namangan shaxrida 1,0 ni tashkil kildi. 2014 yil 9 oyida virusli gepatit «S» bilan 1 nafar bemor kasallangan bo'lib, birlamchi kasallanish ko'rsatkichi 2013 yil 9 oyiga nisbatan 0,1 dan 0,04 ga kamaygan.

2.2. Viloyat aholisining salomatligiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillar

Namangan viloyatida mamlakatimizning qadimdan aholi yashab kelgan mintaqalaridan biridir. Aholining asosiy qismi sug'orma dehqonchilik rivojlangan tekislik va tog'oldi hududlariga to'plangan, shuningdek, xo'jalik faoliyatida dehqonchilikdan tashqari, chorvachilik va hunarmandchilik bilan ham shug'ullanib kelgan. Namangan viloyati hududida o'z davrining yirik tarixiy shaharlari Kosonsoy, Axsikent siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayotda juda katta o'rin tutgan.

Bugungi kunda ham aholining joylashishi, aholi qo'rg'onlarining shakllanishi va rivojlanishida sug'orma dehqonchilikning roli yaqqol sezilib turadi.

Turli tarixiy bosqichlardagi siyosiy-harbiy, ijtimoiy-iqtisodiy voqealar aholining joylashishiga, ko'payishiga, aholi qo'rg'onlarining shakllanishiga va

rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Aholining bugungi joylashishi yuqoridagi juda uzoq davom etgan murakkab jarayonlar bilan bog'liqdir.

Hozirgi davrda viloyatning umumiy aholi soni 2554,0 ming kishini (1.01.2014 y.) tashkil etib, u yil sayin tobora ko'payib bormoqda. Aholining ortib borishi asosan tabiiy ko'payish hisobiga sodir bo'lmoqda.


Aholi sonining tuman va shaharlarda yillar davomida o'zgarishlar dinamikasi shuni ko'rsatadiki, viloyatning CHust va CHortoq tumanlarida bu jarayon sezilarli darajada yuqori bo'lgan. Namangan viloyatida sanoatning rivojlanib borishi shahar aholisining ko'payishiga olib kelmoqda. So'nggi yillarda bu yerda bir necha yangi shahar va shaharchalar vujudga keldi.

Tibbiy geografik nuqta nazardan aholi joylashuvi ham katta ahamiyatga ega. Uning o'rtacha zichligi har bir km kv da 323 kishiga teng (respublikada esa bu ko'rsatkich 69 kishi). Ammo aholi zichligi viloyatning turli hududlarda bir xil emas.

Ayrim hududlarning nozogeografik vaziyatini aniqlashda aholining tabiiy harakati va eng avvalo uning o'lim ko'rsatkichi, jumladan bolalarning o'lim darajasi katta ma'no kasb etadi. Mavjud ma'lumotlarga qaraganda, viloyatda tug'ilish har ming kishi hisobiga 24,6; o'lim 4,7; tabiiy ko'payish esa 19,9 kishiga to'g'ri keladi (2014). Aholining umumiy kasallanish darajasi har 100 000 kishiga 75273,9 kishiga teng (Ushbu ko'rsatkich ayniqsa Mingbuloq, To'raqo'rg'on, CHortoq tumanlarida, shuningdek, Namangan shahrida yuqori darajada. Aholining o'lim ko'rsatkichi ham viloyatning turli hududlarida bir xil emas. Bu jarayon Uchqo'rg'on, Norin tumanlarida (5,0) biroz yuqori (5-jadval) bo'lsada, viloyat aholisining umumiy o'lim ko'rsatkichi respublikaga nisbatan ancha past.

Aholi salomatlik holatiga ma'lum darajada viloyatda mavjud ichki migratsiya ham ta'sir ko'rsatadi. Xususan, aholi punktlarining barpo etilishi, yangi yerlarni o'zlashtirilishi maqsadida qo'shni tuman va viloyatlardan aholining ko'chib kelishi oqibatida aholi orasida xilma-xil kasalliklar tarqalishi mumkin.

Aholining viloyat chegarasida bir hududdan ikkinchisiga ko'chib borish hollari ham ular orasida, ba'zi bir yuqumli va yuqumli bo'lmagan xastaliklarning keng tarqalishiga sabab bo'ladi. Ayniqsa, Qirg'iziston bilan chegaradosh bo'lgan tumanlarda chorva mollari orqali yuqadigan kasalliklar tez-tez nomoyon bo'lib turadi. Bugungi kunda ham shu tuman aholisi orasida mazkur kasallik bo'yicha tibbiyot muassasalalariga murojaat qilish ko'p miqdorda uchraydi.



Namangan viloyatida keyingi yillarda sanoat tarmoqlarining rivojlanishi, qo'riq yerlarining ochilishi mehnat resurslariga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Bularning barchasi aholini hududiy majmualar doirasida joylashtirishni taqozo etadi. Viloyat hududida sanoat markazlari qatoriga Pop, Uychi, Uchqo'rg'on shaharlarini kiritish mumkin. Mazkur sanoat ob'ektlarining deyarli barchasi yuqoridagi sanoat markazlarida joylashgan. Ularning ko'pchiligi (to'qimachilik, paxta tozalash, meva-konserva zavodi va boshqalar) eng avvalo Namangan shahri va uning atrofida (aglomeratsiyasida) to'plangan. Ushbu tarmoqlarning viloyatning asosan bir necha hududlarida mujassamlashganligi bu joylarda yashovchi kishilar salomatligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. SHovqin, atrof-muhitning ifloslanishi, turli xil noxush holatlar, shuningdek, viloyat ziyolilarining

ham shu markazlarda faoliyat ko'rsatayotganligi kasb va boshqa turdagi xastaliklarni keltirib chiqaradi.

Mintaqa iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan yana biri yengil sanoat bo'lib, uning 30 dan ortiq korxonalari mavjud.

Viloyatdagi Mingbuloq, Pop tumanlaridagi paxta zavodlari shu viloyat yalpi mahsulotining 3/5 qismidan ortiqrog'ini ishlab chiqaradi. Namangan viloyatida pillakashlik, to'quvchilik va tikuvchilik fabrikalari ham mavjud. SHu bilan birga viloyat shahar va qishloqlarida qadimdan hunarmandchilik va kosibchilik, turli milliy an'analar tiklanib bormoqda.

Viloyatda oziq-ovqat sanoati korxonalari: yog'-ekstratsiya, konserva, qandolat, vino, makaron fabrikalari, go'sht, sut va non kombinatlari bor. Yuqoridagi sanoat ob'ektlarining asosiy qismi Namangan, Yangqo'rg'on, Pop shaharlarida joylashgan. Agar mazkur sanoat markazlarini tibbiy geografik jihatdan baholaganda shuni alohida ta'kidlash joizki, aynan mana shu hududlarda qon va qon hosil qilish, nafas olish va ovqat hazm qilish a'zolari bilan bog'liq xastaliklar ko'p miqdorda uchraydi. Aholi va sanoat tugunlarining o'ta zichligi, qolaversa, transport to'rining ham aynan shu hududlar tig'iz joylashuvi yuqoridagi xastaliklarni yanada avj olib borishiga zamin yaratmoqda.

Inson salomatligini ta'minlovchi asosiy manbalar atrof-muhit, havo, suv va tuproqdir. Lekin ularning viloyatdagi hozirgi ahvolini qoniqarli deb bo'lmaydi. Viloyat tabiatni muhofaza qilish tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, atmosferaga chiqarilgan zaharli moddalar hisobiga kasallanishning asosiy sababi sifatida nomoyon bo'ladi. Mazkur ko'rsatkich ayniqsa sanoat markazlari atrofida yanada yuqori. Tabiiyki, bunday ekologik muhit aholi salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Viloyat hududida esuvchi shamollar, ularning yo'nalishi bilan bog'liq holatda ham ayrim xastaliklar miqdori ortib borgan. Bu yerda shamollar asosan g'arb va shimoliy-g'arbiy yo'nalishda ko'proq esadi. Bu ham o'z navbatida aholi salomatligida muhim rol o'ynaydi. CHunki, ko'pincha qish oylarida bunday

shamollarning esishi qo'shni Pop, CHust tumanidagi mavjud sanoat ob'ektlarining viloyatga ta'sirini yanada oshiradi.

SHuningdek, viloyatning asosiy transport tugunlarida ham aholining kasallanishi ko'proq. Jumladan, Namangan va CHust, To'raqo'rg'on shaharlarida bu hol yanada sezilarli. Ushbu hududlar aholisi orasida ayniqsa nafas olish va asab tizimi bilan bog'liq xastaliklar ko'pchilikni tashkil etadi.

Viloyatda suv manbalari bilan bog'liq kasalliklar ham ortib bormoqda. Ayniqsa, Sirdaryo daryosi orqali keladigan oqova va zovur suvlari, unda erigan tuz va boshqa kimyoviy moddalarning viloyat hududida to'planib qolayotganligi o'lka ekologik vaziyatini yanada keskinlashtirmoqda. Natijada aholi orasida ovqat hazm qilish a'zolari bilan bog'liq xastaliklar ko'p uchramoqda. Bu hol ayniqsa chiqindi suvlar tashlanadigan zovurlar yaqinida, ya'ni vohaning g'arbiy qismi aholisi orasida nisbatan keng tarqalgan.

Namangan qishloq xo'jaligida asosan ikki tarmoq-paxtachilik va meva sabzavotchilikda yetakchilik qiladi. Paxta va boshqa qishloq xo'jalik ekinlarining asosiy qismi sug'oriladigan xududlarda yetishtiriladi. Qishloq xo'jaligida band aholining asosiy qismi paxtachilik bilan shug'ullanadi. Bu esa ular orasida ayni shu soha bilan uzviy bog'liq bo'lgan xastaliklarni keltirib chiqaradi. Sababi-yaqin yillargacha paxta ekin maydonlarida turli xil kimyoviy moddalardan keng foydalanilganligi aholi va xususan bolalar salomatligiga katta zarar yetkazgan.

So'nggi yillarda Namangan viloyatida, O'zbekistonning boshqa viloyatlari kabi, qishloq xo'jaligi bilan band bo'lgan aholi orasida kasbga aloqador bo'lgan kasalliklar ham kelib chiqmoqda. Bunday holat ko'proq ekologik muhitning yomonlashuvi bilan bir qatorda qishloq xo'jaligida texnika vositalaridan to'g'ri foydalanmaslik oqibatidir.

Qishloq xo'jaligida band bo'lgan aholi orasida olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bunday kasbli kishilar orasida ayniqsa surinkali kasalliklar jumladan, oshqozon-ichak, ko'z, nafas olish a'zolari va asab tizimi xastaliklari ko'p uchraydi. Xususan, texnika vositalari bilan uzoq yillar ish olib borgan

mexanizatorlar va shunga o'xshash kasb egalarida doimiy qattiq zo'riqish tufayli ma'lum kasalliklar kelib chiqishi aniqlangan. SHuningdek, mazkur sohada faoliyat ko'rsatuvchilar orasida bod, radikulit bilan kasallanganlar ham oz emas.

Namangan viloyati azaldan ayrim yuqumli xastaliklarning o'chog'i bo'lib kelgan. Bunga uning tabiiy shart-sharoitlari bilan bir qatorda ijtimoiy sohalarning ham yetarlicha yo'lga qo'yilmaganligi sabab bo'lgan. Afsuski, bugungi kunda ham ushbu soha tarmoqlarini qoniqarli darajada deb bo'lmaydi.

Ma'lumki, epidemik jarayonlarning o'tishiga ijtimoiy omillarning tabiiy omillardan ko'ra ta'siri ko'proq. Bu o'rinda aholi turmush sharoitlari: turar-joylar holati, aholi zichligi, kanalizatsiya, toza ichimlik suvi va boshqa maishiy inshootlarning bor yo'qligi, aholining moddiy farovonligi, oziq-ovqat tarkibi, tibbiy sanitariya madaniyati, migratsiya jarayonlari va sog'liqni saqlash sohasi ishlarining ahvoli (umumiy qilib aytganda, ijtimoiy infrastruktura tizimi) muhim mazmunga ega. Ushbu omillarning har biri aholi salomatligiga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi. CHunonchi, viloyat aholisining toza ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlash darajasi yetarlicha emas. Bu ham o'z navbatida aholi salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

SHu o'rinda aytish lozimki, keyingi yillarda viloyatda aholining qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish yetarli darajada emas. Bu ham aholi salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri hisoblanadi.

SHunday qilib, viloyatda kishilar turmush darajasi va aholi salomatligini yaxshilash, avvalo mamlakatimiz rahbariyati tomonidan belgilangan tub ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni amalga oshirish, xalq xo'jaligini zamonaviy talab hamda ehtiyoj doirasida rivojlantirish va hududiy tashkil etish, ekologik muhit musaffoligini ta'minlash kabi masalalar bilan chambarchas bog'liq. Ushbu muammolarni ilmiy asosda yechish nafaqat Namangan viloyatida, qolaversa, respublikamizning barcha mintaqalarida sog'lom avlodni voyaga yetkazish, aholining moddiy va ma'naviy farovonligini oshirish imkonini beradi.

2.3. Aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishni hududiy tashkil etilishini takomillashtirish.

Mustaqillik yillarida viloyatda aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish tizimida ancha ijobiy o'zgarishlar bo'ldi. Dastlabki yillarda viloyat sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan ishlar tartibi sobiq Ittifoq davridagidek amalga oshirildi. Keyinchalik, 90-yillar o'rtalaridan tibbiy xizmatni yangicha tashkil etish borasidagi islohotlar amalga oshirila boshladi. Jumladan, sohaning ayrim xizmat ko'rsatish turlariga xususiylashtirish kirib keldi, dorixona xizmati deyarlik davlat tasarrufidan chiqarilib, xususiy sektorga o'tkazildi, dastlab yirik shaharlarda, keyinchalik tuman markazlarida xususiy klinikalar tashkil etila boshlandi.

Viloyat axolisiga statsionar xizmati 8931 shifo o'rniga ega bo'lgan 34 ta shifoxonalar tomonidan amalga oshiriladi. Har 10000 axolini shifo o'rinlari bilan ta'minlanishi 34,9 ga to'g'ri keldi. (2013 yilda 9819ta shifo o'rinlari xar 10000 axoliga ta'minlanish 39,2).

2014 yil davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 28 fevraldagi «Sog'liqni saklash tizimidagi tibbiyot muassasalarini optimizatsiya, restruktrizatsiya va o'rin fondlarini optimizatsiyalashtirish to'g'risida»gi 1652-sonli qaroriga asosan byudjet o'rinlaridan 888ta shifo o'rinlari qisqartirilib, xo'jalik hisobiga va o'z-o'zini moliyalashtirishga o'tkazildi.

Viloyat bo'yicha 2014 yilda doimiy shifo o'rinlarida 414757 nafar bemor davolandi. (2013 yilda 408350 ta). O'rin bandligi viloyat ko'rsatkichi 319,1 (2013 yilda 333,5)ga teng bo'lgan xolda, Norin tumanida 257,6, Pop tumanida 281,1, Mingbo'loq tumanida 282,9 va Yangiko'rg'on tumanida 298,4ni tashkil qildi.

Bemorlarni o'rinda o'rtacha bo'lishi viloyat ko'rsatkichi 7,0ga (2013 yilda 8,0) teng bo'ldi. Viloyat ko'rsatkichidan yuqori viloyat muassasalarida 8,4, Namangan shaxrida 7,5, Uychi tumanida 7,2 va Kosonsoy tumanida 7,1ni tashkil qildi.

O'rinlar almashinuvi viloyat ko'rsatkichi 45,3ga (2013 yilda 41,5) teng bo'ldi. Viloyat ko'rsatkichidan past viloyat muassasalarida 37,8, Norin tumanida

38,4, Namangan shaxrida 40,1 va Pop tumanida 42,1ni tashkil qildi.

O'rin-kunlar rejasi bajarilishi viloyat ko'rsatkichi 96,7%ga (2013 yilda 101,1%) teng bo'ldi. Viloyat ko'rsatkichidan past Norin tumanida 78,1%, Namangan tumanida 84,1%, Pop tumanida 85,2% va Mingbo'loq tumanida 85,7%ni tashkil qildi.

Sil kasalligi bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib, dunyo miqyosida o'lim va nogironlikka olib keluvchi sabablardan biri bo'lib qolmokda. Viloyatda silga qarshi kurash ishlari O'zbekiston Respublikasi Sog'likni Saqlash vazirligining 1993 yilgi 591-sonli, 1995-yilgi 552-sonli buyruqlari va DOTS dasturi asosida olib borilmokda.

Viloyatda sil kasalliklarini statsionar sharoitida davolovchi 6 ta muassasa va 1 ta bo'lim bo'lib, faol sil kasalliklarini davolash uchun 600 ta shifo o'rinlari mavjud.

Sil kasalligi bilan ro'yxatga olingan bemorlar 1089 nafarni tashkil qilib, kasallanish xar 100 ming axoliga 43,2 ni (2013 yilda 1217 nafar bemor, kasallanish ko'rsatkichi 49,4) tashkil qildi. Viloyat ko'rsatkichidan yuqori Mingbo'loq tumanida 52,7, Namangan tumanida 52,4, va Namangan shaxrida 49,9ni tashkil qildi.

Viloyat axolisiga teri-tanosil kasalliklari hizmati O'zbekiston Respublikasi Sog'likni Saqlash Vazirligining 1998 yil 20 sentyabrdagi 660- sonli buyrugi asosida 90 o'rinli viloyat teri-tanosil kasalliklar dispanserida, 125 o'rinli markaziy tuman shifoxonalaridagi ixtisoslashtirilgan bo'limlarida hamda 11 ta shahar va tumanlardagi teri-tanosil kasalliklari xonalarida viloyat sog'likni saqlash boshqarmasi tomonidan tasdiqlangan reja asosida olib boriladi.

2014 yilda 186 ta zaxm kasalligi ro'yxatga olingan bo'lib, (o'tgan yilning shu davrida xam 186 ta), intensiv ko'rsatkichi 7,4 ni tashkil etdi. (2013 yilda 7,4). Viloyat ko'rsatkichidan yuqori Namangan shaxrida 18,0, Kosonsoy tumanida 10,0 va Mingbo'loq tumanida 8,0 ga teng bo'ldi.

2014 yilda viloyatda suzak kasalligi bilan birlamchi 491 nafar bemor

hisobga olingan olingan bo'lib, intensiv ko'rsatkichi xar 100 ming kishiga 20,0 (2013 yilda 490 nafar, intensiv ko'rsatkich 19,2). Zaxmni suzakka nisbati 1: 2,6 ga to'g'ri keldi. Viloyat ko'rsatkichidan yuqori Mingbo'loq tumanida 33,0, Norin tumanida 29,0, Yangiqo'rgon tumanida 27,0 va CHortoq tumanida 22,0 ni tashkil qildi.

Ijtimoiy axamiyatga ega bo'lgan kasalliklardan o'sma kasalliklar bilan 1608 nafar bemor ro'yhatga olingan bo'lib, xar 100 ming axoliga kasallanish 62,9 (2013 yilda 1622 nafar bemor ro'yhatga olingan kasallanish ko'rsatkichi 65,1). Viloyat ko'rsatkichidan yuqori CHust tumanida 81,4, Uychi tumanida 74,5, CHortok tumanida 69,1, Kosonsoy tumanida 67,9, Pop tumanida 67,8 va Namangan shaxrida 66,8ga teng bo'ldi.

2013 yilda narkologik kasalliklar bilan 377 nafar bemor ro'yhatga olingan bo'lib, xar 100000 axoliga kasallanishi ko'rsatkichi 15,3 bo'lgan bo'lsa, 2014 yilda 381 nafar bemor ro'yhatga olingan, kasallanish ko'rsatkichi 15,0 ni tashkil qildi. Viloyat ko'rsatkichidan yuqori , Namangan shaxrida 24,8, Norin tumanida 18,1ni tashkil qildi.

Psixiatriya xizmati «Psixiatriya xizmati to'g'risida»gi konun asosida tashkil etilgan bo'lib, viloyat axolisiga 480 shifo o'ringa muljallangan, 1 ta viloyat asab-ruxiy kasalliklar shifoxonasi, Namangan shaxar tibbiyot markazining 30 o'rinli neyrosomatika bo'limi va 19 ta shaxar va tuman markaziy shifoxonalari koshidagi kabinetlarda xizmat kursatiladi.

2013 yilda viloyat bo'yicha ruxiy kasalliklar bilan 2932 nafar bemor birinchi marta aniklangan tashxis bilan ro'yhatga olingan bo'lib, birlamchi kasallanish ko'rsatkichi 118,4 bo'lgan bo'lsa, 2014 yilda 2755 nafar bemor birlamchi tashxis bilan ro'yhatga olingan, xar 100 ming axoliga kasallanish ko'rsatkichi 110,0 ga teng bo'ldi. Viloyat ko'rsatkichidan yuqori Namangan shaxrida 191,1ni tashkil qildi.

Endokrinologik kasalliklar bilan jami 34951 nafar bemor ro'yhatga olingan bo'lib, kasallanish xar 100 ming axoliga 1368,9 ni (2013 yilda 349021nafar bemor,

kasallanish ko'rsatkichi 1418,8) tashkil qildi. Viloyat ko'rsatkichidan yuqori Norin tumanida 2045,3, Kosonsoy tumanida 1792,3, CHortok tumanida 1662,6, Namangan shaxrida 1507,8 va Uchkurgon tumanida 1468,7ni tashkil qildi.

SHu jumladan kalkonsimon bez kasalliklari bilan kasallanish xar 100 ming axoliga 781,4 ni (2013 yilda 774,6 tashkil qildi. Viloyat ko'rsatkichidan yuqori Norin tumanida 1501,6, CHortok tumanida 1132,7, Uchkurgon tumanida 785,0, va Mingbo'lok tumanida 769,5ga teng bo'ldi.

Kandli diabet kasalliklar bilan jami kasallanish xar 100 ming axoliga 459,4ni (2013 yilda 443,8 tashkil qildi. Viloyat ko'rsatkichidan yuqori Namangan shaxrida 695,9, Kosonsoy tumanida 579,9, CHust tumanida 476,8 va Mingbo'lok tumanida 474,1ni tashkil qildi.

2014 yilda viloyat bo'yicha yukumli kasalliklardan virusli gepatit bilan 3730 nafar bemor kasallangan bo'lib, birlamchi kasallanish ko'rsatkichi 150,8ga teng bo'ldi. (2013 yilda virusli gepatit bilan 3827 nafar bemor kasallangan bo'lib, intensiv kursatkich 158,6). Viloyat ko'rsatkichidan yuqori Namangan shaxrida 296,7 va Turakurgon tumanida 171,0 ni tashkil qildi.

2014 yilda viloyat bo'yicha yukumli kasalliklardan virusli gepatit A bilan 3717 nafar bemor kasallangan bo'lib, birlamchi kasallanish ko'rsatkichi 150,3 teng bo'ldi (2013 yilda virusli gepatit A kasalligi bilan 3819 nafar bemor intensiv kursatkich 158,3). Viloyat ko'rsatkichidan yuqori Namangan shaxrida 295,7 va Turakurgon tumanida 170,5 ni tashkil qildi.

2014 yilda viloyat bo'yicha yukumli kasalliklardan virusli gepatit V bilan 8 nafar bemor kasallangan bo'lib, birlamchi kasallanish ko'rsatkichi 0,3 tashkil qildi.(2013 yilda virusli gepatit V bilan 5 nafar bemor kasallangan bo'lib, intensiv kursatkich 0,2). Viloyat ko'rsatkichidan yuqori Uchkurgon tumanida 1,3, Namangan shaxrida 0,5, Turakurgon va Uychi tumanlarida 0,5 va CHust tumanida 0,4ni tashkil qildi.

2014 yilda viloyat bo'yicha yukumli kasalliklardan virusli gepatit S bilan 5 nafar bemor kasallangan bo'lib, birlamchi kasallanish ko'rsatkichi 0,2, (2013 yilda

3 nafr kasallanish ko'rsatkichi 0,2)ni tashkil qildi. Viloyat ko'rsatkichidan yuqori Mingbo'lok tumanida 1,8 va Uychi tumanida 0,5ga teng bo'ldi.

Viloyatning boshqa ma'muriy birliklari orasida kasalxona xizmati bilan ta'minlanishi darajasi bo'yicha Namangan, CHust, CHortoq va Uchqo'rg'on tumanlari bo'lib, har 10000 ming aholiga to'g'ri keladigan bemor o'rinlari va vrachlar soni 32,3 va 20,4 ni tashkil etadi.

Viloyat tibbiy xizmat ko'rsatish tizimining mustaqillik yillarida rivojlanishida quyidagi ikkita asosiy yo'nalishni ajratish mumkin;

- ✓ xizmat ko'rsatish tizimi kasalxonalarini markazlashtirish;
- ✓ chekka hududlarda poliklinika muassasalar vazifalarining ma'lum qismini ularga tobe va qo'yi tizim shahobchalariga yuklash.

Birinchi holatda quyidagilar kuzatiladi;

- hududlardagi kasalxonalarda foydalanish samaradorligi-ning pasayishi;
- ayrim muassalari faoliyat yuritayotgan hududlarda aholi sonining ortib ketishi hamda xavfsizlik choralarning kamayishi;
- malakali tibbiy xodimlarning chekka hududlarda yetishmasligi yoki markazda xususiy faoliyatni yo'lga qo'yilishi sababli kadrlarning viloyat, respublika markazlariga oqishi;
- ijtimoiy siyosiy sabablar va boshqa bir qator omillar natijasida tumanlardagi qator kasalxonalar tugatilib, viloyat markaziga ko'chirildi.

Ikkinchi holatda tumanlarda poliklinika muassasalari qoshidagi feldsher-akusherlik punktlari tugatilib, ularning o'rnida qishloq vrachlik punktlari tashkil etila boshladi. Ular ma'lum darajada oliy ma'lumotli xodimlar hamda tibbiy anjomlar bilan ta'minlandi. Ushbu hol vrachlik ambulatoriyalar hamda punktlar ahamiyatini oshirdi va qator bemorlarni kunduzgi davolanish imkoniyatini oshirdi. SHu sababli viloyatda kunduzgi davolash muassasalarining ahamiyati va ularda davolangan bemorlarning miqdori yildan-yilga ortib bordi.

Tahlillar ko'rsatdiki, viloyatda kasalxonalar va ulardagi doimiy shifo o'rinlarining kamayishi poliklinika, vrachlik ambulatoriyalarida kunduzgi davolash

miqyosining ortib borishiga zamin yasadi. Viloyatda 1998-2014 yillar oralig'ida kunduzgi davolash maskanlarida davolanganlar soni 6 marta oshdi.

Tibbiy infratuzilmadagi o'zgarishlar ma'lum ma'noda xususiy amaliyot shifoxonalari faoliyatining kengayib borishi bilan ham izohlanadi. Mustaqillik yillarida qator tibbiy xizmat ko'rsatish turlari, masalan, stomatologiya, oftalmologiya hamda ayrim tor mutaxassislik jabhalarida xususiy amaliyot keng yoyildi. SHu bilan birga ayrim noan'anaviy davolash turlarining kirib kelishi bevosita chet ellarda malakasini oshirib kelgan xususiy amaliyot shifokorlari bilan bog'liq.

Hududda xizmat ko'rsatish sohalari, ob'ektlari aholi punktlarining katta-kichikligiga qarab shajarasimon yoki asalari uyasi shaklida joylashadi. Ushbu hol bevosita aholining xizmat turlariga bo'lgan ko'lamiga qarab miqdor va sifat jihatdan turlanadi. Xususan, ko'pgina xizmat turlari yirik shaharda, ayrimlari pog'onaning keyingi tizimida turgan kichikroq shaharda, ayrimlari aholi punktlarining katta-kichikligidan qat'iy nazar barchasida mavjud bo'ladi.

Viloyatda aholining katta qismi qishloq joylarda istiqomat qiladi. SHu bois qishloq joylarda tibbiy infratuzilmani takomillashtirish borasida katta ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, so'nggi ikki-uch yil oralig'ida barpo etilgan muassasalar hisobiga ahvol biroz yaxshilandi. Ammo, shunga qaramay, viloyatda aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish tarkibida nomuvofiqliklar saqlanib qolmoqda.

Quyidagi jadvalda qishloq tumanlarda aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish shahobchalarining negizi QVP larning joylashuvi, hududning ular bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichlari keltirilgan. Ko'rinib turibdiki, viloyat tumanlarining QVP lar bilan ta'minlanganlik darajasidagi farq ikki martabadan kattadir. To'g'ri, aksar tumanlarda ambulatoriya poliklinikalari mavjud Ammo, ularning joylashuvi ham notekis va aksariyati tuman markazlarida o'rnashgan. Ayni vaqtda ularning ko'pchiligi tor ixtisoslikka ega.

**Viloyat ma'muriy qishloq tumanlarining QVP lar xizmati bilan ta'minlanganligi
(2014 y.).**

SHaxar va tumanlar	KVP-lar soni	Ularni kuvvati	Axoli soni	Katnov soni Jami	SHu jumladan			Bir kishiga katnov
					KVPda	Uyda	Stomato loglar	
Mingbulok	16	800	94,5	286,8	230,3	30,4	26,1	3,0
Kosonsoy	21	1035	140,3	587,7	474,1	85,1	28,5	4,2
Namangan	19	1020	187,8	458,6	406,5	52,1	-	2,4
Norin	17	900	120,6	449,0	355,4	91,0	3,6	3,7
Pop	26	1300	167,9	668,5	519,7	85,9	62,9	3,9
Turakurgon	21	1150	138,6	501,5	427,3	51,3	22,9	3,6
Uchkurgon	16	850	110,5	465,7	380,1	77,2	8,4	4,2
Uychi	18	1000	170,8	630,5	526,7	58,1	45,7	3,7
CHust	21	1050	141,5	585,2	389,1	138,5	57,6	4,1
CHortok	18	1105	127,8	418,5	333,8	48,5	36,2	3,3
Yangikurgont	24	1200	176,9	581,2	460,7	83,6	36,9	3,3
Viloyat bo'yicha	217	11410	1576,2	5634,2	4503,7	801,7	328,8	3,6

Jadval: Namangan viloyati sog'liqni saqlash bosh boshqarmasi ma'lumotlari asosida hisoblangan.

Olib borilgan tadqiqotlarimiz davomida ayon bo'ldiki, viloyat sog'liqni saqlash tizimida islohotlar oxirigacha yetkazilmagan va, binobarin, tibbiy xizmatning hududiy tizimini takomillashtirish muhim masalalardan biridir.

Joylarda aholining salomatligi bilan bog'liq muammolar murakkabligi, tabiiy sharoit, ichimlik suvining yomonligi bilan birgalikda ijtimoiy-iqtisodiy masalalar ham ahamiyatli ekanligi, tibbiy xizmat ko'rsatish tizimida sobiq tizim illatlarining saqlanib qolganligi ma'lum bo'ldi. SHu bois, joylarda aholi salomatligi monitoringini yo'lga qo'yish hamda zamonaviy tibbiy xizmatni tashkil etish kundalik xarakterdagi masala bo'lib, shunga monand ravishda sa'y-harakatlarni olib borish talab etiladi. Viloyatda bu va shunga o'xshash muammolarni izchil hal etilishi nozogeografik vaziyatni sog'lomlashtirish, aholi salomatligi ko'rsatkichlarini tubdan yaxshilash imkoniyatini yaratadi.

2.4. Viloyatda axoli salomatligini yaxshilash muammolari va istiqbolli yo'nalishlari

So'nggi yillarda mamlakatimizda qabul qilinayotgan sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish va aholi salomatligini muhofaza qilish borasidagi O'zbekiston Respublikasining qonunlari viloyatlarda shu soha uchun aloqador bo'lgan mavjud muammolar yechimini talab etadi. Bunday muammolar orasida ayniqsa joylarning sanitariya-gigiena, ekologik holatini yaxshilash, aholi va ishlab chiqarishni hududiy tashkil etish bilan bog'liq geografik masalalar yetakchi ahamiyat kasb etadi.

Hududning nozogeografik sharoiti bevosita ekotizimning turlanishi makondagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvol va atrof-muhitga texnogen ta'sirning darajasi bilan bevosita bog'liq. Inson yashash muhitining o'zgara borishi va uning oqibatida nozogeografik sharoitning turlanib borishi mintaqalarda aholi salomatligiga ta'sir etuvchi tabiiy va ijtimoiy omillarning uyg'unlashuviga olib kelmoqda. Ushbu o'ziga xos bog'liqlikdagi ta'sirning yanada ijtimoiylashib borish jarayoni tabiiy hol bo'lib, asosan inson yashash muhitining ijtimoiy va ekologik jihatdan o'zgarib borayotganligi bilan izohlanadi.

Namangan viloyatining nozogeografik va ekologik sharoiti uzoq muddat turg'un rivojlanib, XX asrning 2-choragidan texnogen ta'sir ostida birmuncha yomonlashdi. Viloyatning ayni paytdagi ijtimoiy ekologik holati bir necha omillar ta'sirida shakllangan. Vujudga kelgan muammolarning yechimi masalaga majmualiy yondoshuvni, ayrim hollarda bir-biriga zid bo'lgan amaliyotlarni hayotga tadbiq etishni talab etadi. Ularning amalga oshirilishi ma'lum muammolarni bartaraf etish imkonini yaratsa, ikkinchi tomondan, o'z navbatida, amaliy tadbiq ta'sirida yuzaga kelgan masalalarni hal etishni talab etadi. Viloyatning tog' oldi sharoiti hamda chuchuk suv manbalari minerallashuv darajasining yuqoriligi aholi o'rtasida nafas olish va oshqozon-ichak kasalliklarining keng tarqalishiga olib kelgan.

Mintaqa nozogeografik vaziyatini yaxshilash aholi salomatligiga ta'sir etuvchi masalalarni «yuqoridan pastga» qarab emas, balki, aksincha tartibda hal qilishini talab etadi. Viloyatda nozogeografik sharoitning yomonlashuvi, eng avvalo, mintaqa miqyosidagi xo'jalik faoliyatini tashkil etilishi bilan bog'liqdir.

Jumladan, qishloq xo'jaligining rivojlantirilishi bilan bog'liq holda yuzaga kelgan ekologik muammolar viloyatda keskin tus olgan. O'zbekiston va qo'shni respublikalarda suv resurslaridan xo'jasizlarcha foydalanish oqibatida yuzaga kelgan muammolar viloyatda shakllangan noxush nozogeografik vaziyatning asosiy sabablaridan biridir.

Namangan viloyati axolisining aksariyati viloyatga suv beruvchi daryolarni qirg'oq qismida joylashganligi ham viloyat aholisi salomatligiga salbiy ta'sir etuvchi omillardan biriga aylandi. Ilgari viloyatning Sirdaryo yoqasida joylashganligi uning suv resurslari bilan yuqori ta'minlanganlik darajasini belgilagan bo'lsa, hozirda ushbu hol ma'lum ma'noda regressiv xususiyat kasb etmoqda. Daryo oqimida suvning qishloq xo'jalik va maishiy tashlanmalar bilan ifloslanishi uning kimyoviy va bakteriologik tarkibini buzilishiga olib kelgan. Viloyatda markaziy suv ta'minotining bevosita Sirdaryo daryosining suvini tozalashning eski texnologiyasidan foydalanilishi aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash sifatidagi asosiy muammolardan biri bo'lib kelmoqda.

Keyingi yillarda mintaqa iqlimida ham qisman o'zgarishlar kuzatilmoqda. Viloyatda aholi salomatligiga ta'sir etuvchi omillardan yana biri bu hudud ijtimoiy-iqtisodiy muhitidir. Namangan viloyati xo'jalik tarmoqlari rivojlanganlik darajasi bo'yicha respublikada o'rta pog'onalarni egallaydi. Viloyat ishlab chiqarish sohalarining texnologik hamda texnik holati mamlakatning aksar hududlarinikidan unchalik farq etmaydi. Bu esa, o'z navbatida, ehtiyojlar qondirilishini ta'minlash borasidagi «zo'riqish» va hudud ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati uchun ortiqcha bo'lgan «demografik yuk» ning ortishiga sabab bo'lmoqda. Ushbu holatlar aholi o'rtasida asab, ruhiy hamda ular bilan birga yuzaga keladigan kasalliklarning tobora ko'payib borishiga olib kelmoqda. Viloyat

aholisi joylashuvi va zichligining o'ta yuqoriligi esa ba'zi yuqumli kasalliklarning tez tarqalishiga sharoit yaratadi.

Umuman olganda, viloyat aholisi salomatligiga ta'sir etuvchi quyidagi guruh omillar mavjud;

Tashqi omillar;

- Atmosfera havosini ifloslanish muammosining chuqurlashib borishi;
- asosiy chuchuk chuv manbai Sirdaryo ekologik rejimining buzilib borishi;

Ichki omillar;

- aholi soni va zichligining ortishi natijasida «demografik» bosimning ortishi;
- yer osti va usti suvlarining iste'molga yaroqsizligi yoki sifati pastligi tufayli aholining chuchuk suv bilan ta'minlash muammosining mavjudligi;
- viloyat ijtimoiy-iqtisodiy sohalarining zaif rivojlanayotganligi;
- ekologik infratuzilma va aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish va markazlashuv jarayonining kuchayishi hamda chekka hududlarda zamonaviy tibbiyot uskunalarining yetishmasligi.

Viloyatda aholi salomatligi va ekologik vaziyatni yaxshilash, eng avvalo, ichki imkoniyatlarni ishga solish bilan bog'liqdir. Ko'rsatib o'tilgan omillarning ko'pchiligi mintaqaviy, bir nechta hamishtirokchilarning birgalikdagi harakatini talab etadi.

Viloyatda ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilma hududiy tarkibini takomillashtirish va rivojlantirish dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Jumladan, ekologik infratuzilma tarmoqlanishni yanada taraqqiy ettirish lozim. Bozor iqtisodiyoti sharoitida, ko'rib o'tganimizdek, viloyat tibbiy xizmat ko'rsatish geografiyasida ayrim o'zgarishlar ro'y berdi. Ularning asosiy xususiyati shundaki, tizimda ancha ijobiy jihatlar amalga oshirilayotganligiga qaramasdan, uning hududiy markazlashuvi kuchayib bormoqda. Qishloq joylarda yangi tipdagi xizmat ko'rsatish shahobchalari tashkil etilayotgan bo'lsada, umumiy va xususiy yo'nalishdagi xizmat, yirik tibbiy markazlarning aksari viloyat markazlariga

to'planib qolgan. Qishloq tumanlarida esa umumiy davolash, dastlabki tibbiy ko'rik va xizmat ko'rsatish yengil ko'rinishdagi kasalliklarni davolash, maslahat poliklinik va terapiyaviy yo'nalishdagi klinika va muassasalar faoliyat yuritmoqda. Ilgari mavjud bo'lmagan umumiy davolanish hamda ayrim xususiy yo'nalishiga ega bo'lgan shifoxonalarning ko'pchiligi qator omillar sababli faoliyati to'xtatilmoqda. Ushbu hol ma'lum ma'noda viloyat aholisining salomatligiga putur yetkazuvchi omillardan biriga aylanib bormoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, viloyatda geoeologik vaziyat va aholi salomatligini yaxshilash masalalari uchta bosqich va yo'nalishda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

Ushbu yo'nalishlarga viloyatda ijtimoiy-iqtisodiy, tibbiy-ekologik infratuzilmani yaxshilash, uning hududiy tarkibini takomillashtirish masalalarini qamrab oladi. Ular:

- ❖ viloyat ijtimoiy-iqtisodiy tizimi hududiy va tarmoq tarkibini takomillashtirish;
- ❖ mintqa sanitar-epidemiologik va tibbiy – ekologik monitoringini yaxshilash;
- ❖ viloyat tibbiy xizmat ko'rsatish sohalarini hududiy tashkil etilishini takomillashtirishni nazarda tutadi.

Viloyat ijtimoiy-iqtisodiy sohalarini jadal rivojlantirish hozirgi kunning asosiy masalalaridan sanaladi. Yangi ish o'rinlari yaratish orqali xo'jalik tarmoqlarini rivojlantirish, sifatli sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish ma'lum ma'noda ijtimoiy masalalarni hal qilish, o'z navbatida, aholining moddiy masalalar bilan bog'liq holda yuzaga keladigan kasalliklarini kamaytirish imkoniyatini yaratadi.

Ma'lumki, doimiy yashash sharoiti va moddiy ahvolini yaxshilash bilan bog'liq masalalarning murakkabligi hudud ijtimoiy masalalarini keskinlashtiradi va ayni vaqtda aholining rivojlanishi hamda salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Viloyat sanitar-epidemiologik holatini yaxshilash maishiy chiqindilarni tashlash, saqlash hamda ularni qayta ishlash, ya'ni ekologik infratuzilma mexanizmini yangicha tashkil etish bilan bog'liqdir. Ayniqsa, grunt suvlarining yer betiga yaqinligi qattiq va kanalizatsiya chiqindilari tashlanadigan tizimni maxsus jihozlash, ayniqsa yopiq tizimli inshootlar holatiga o'tish tavsiya etiladi. Kanalizatsiya chiqindilarini (Namangan shahri, tuman markazlarida) yopiq trassa orqali betonlashtirilgan havzaga tashlanishini va ularda zamonaviy tozalash inshootlarini barpo etish ushbu masalaning asosiy jihatlaridan hisoblanadi. Qattiq maishiy chiqindilar negizida sanoat usulida ikkilamchi materiallarni ishlab chiqarishni tashkil etish ham maqsadga muvofiqdir.

Sanitar-epidemiologik holatni yaxshilash qishloq xo'jaligida meliorativ tizimni yangicha tashkil etishni ham talab qiladi. Viloyatda grunt suvlarining yer betiga yaqinligi, ayrim joylarda yuzaga chiqishi sanitar-epidemiologik zararlanish o'choqlarini shakllantiradi. Grunt suvlari sathini pasaytirish, eng avvalo, sug'orish hamda kollektor-drenaj tizimi faoliyatini yaxshilash bilan chambarchasdir. Xususan, sug'orishni kam suv talab, masalan, tomchilatib sug'orish kabi tizimini joriy etish suvdan tejab-tergab foydalanishga imkon yaratsa, ikkinchidan, suv sathining pasayishi tuproqning qayta sho'rlanishi, grunt suvining maishiy chiqindilar bilan zararlanishini oldini oladi.

Viloyat aholisini chuchuk suv bilan ta'minlash asosiy masalalardan biridir. Hozirda viloyat aholisining 70 foizdan sal ortiqrog'i sifatli ichimlik suvi bilan ma'lum darajada taminlangan. Ushbu ko'rsatkich Mingbuloq, Pop, Norin kabi tumanlarida achinarli ahvolda. Masalan, viloyatning G'arbiy chekkasida joylashgan Pop tumanida aholining atigi 2/3 qismi ichimlik suvidan foydalanadi, xolos. Vaholanki, ushbu tumanning cho'l bilan chegaradoshligi sababli zax suvlar tashlanadigan xududlarning mavjudligi oqar suvlarning navbati ekanligi ekologik vaziyatni boshqa hududlarga nisbatan yanada murakkablashtiradi.

Markaziy ta'minot tizimi suvining ayrim hollarda me'yorlarga javob bermasligi hamda yer osti suvlarining iste'molga yaroqsizligi aholi salomatligiga

salbiy ta'sir etmoqda. Ayirish tizimi, ichki sekretiya bezlari hamda suyak-mushak bo'g'ini, harakatlanish tizimida tuz va tosh yig'ilishi bevosita ichimlik suvining sifat ko'rsatkichlari ta'sirida yuzaga kelgan.

Tadqiqot natijalari ko'rsatishicha viloyat nafas olish a'zolari kasalliklarining aholi o'rtasida keng tarqalganligi bo'yicha respublikaning boshqa hududlaridan ajralib turadi. Bu holat atmosferani havosida is-gaz va chang-g'uborning ko'pligi bilan izohlanadi. Ayniqsa, respirator a'zolar kasalliklari Namangan shahrida yuqori darajaga ega. Dala maydonlari atrofida iqtisodiy jihatdan foydali va himoya vazifasini o'tovchi daraxtzorlarni tashkil etish tavsiya etiladi. Grunt suvlari sathini pasaytirish borasidagi takliflarni amalga oshirilishi ko'kalamzorlashtirish ishlarini yaxshilashga ham yordam beradi. Ma'lumki, grunt suvlari yer betiga yaqinligi ayrim ko'p yillik ekinlar rivojlanishini chegaralaydi.

Viloyatda tibbiy xizmat ko'rsatish sohalari tarmoq va hududiy tarkibini takomillashtirish asosiy masalalardan biriga aylanib bormoqda. Tibbiy xizmat, ayniqsa malakali hamda sertarmoq xizmat turlari viloyatning markazida to'planib qolmoqda. Tuman markazlari va qishloq joylaridagi yirik tibbiy xizmat ko'rsatish markazlarining ayrimlari asta-sekinlik bilan qisqartirilmoqda. Bir tarafdin qaraganda ushbu hol tabiiy, ya'ni malakali kadrlarning yetishmasligi hamda ularning yirik markazlarga intilishi, erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida markaz-periferiya jarayonining kuchayishi bilan tavsiflanadi. Tibbiy xizmat ko'rsatish tizimi hududiy va tarmoq tarkibini takomillashtirish masalalari tumanlarda aholining kasallanish xususiyatidan kelib chiqqan holda olib borilishi lozim.

Tibbiy xizmat ko'rsatish tizimi faoliyatini yaxshilashning keyingi yo'nalishi viloyat tumanlarida maxsus tor yo'nalishdagi kasalxona va klinikalarni tashkil etishdan iborat. Ushbu davolash maskanlari ayrim hollarda poliklinik yo'nalishga ega bo'lishi lozim. Chunki, iste'mol suvi bilan bog'liq kasalliklar majmuaviy yo'nalishga ega bo'lib, ushbu markazlarda aholi salomatligini tahlil va tashhis qilish, uni qayta tiklash va nazorat qilish tizimini yo'lga qo'yish talab etiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, viloyatning ayirish va endokrin tizimi kasalliklari boshqalariga nisbatan keng tarqalgan tumanlarida urologiya, endokrinologiya, terapiya markazlari faoliyatini yaxshilash va yaqin kelajakda ularni maxsus, ixtisoslashgan markazlarga aylantirish taklif etiladi.

Tibbiy xizmat ko'rsatish tizimi hamda atrof-muhit va sanitariya-epidemiologik holatni nazorat qiluvchi muassasalarni zamonaviy texnologiya, jihoz-uskunalar bilan qurollantirish dolzarb masalalardan sanaladi. CHekka hududlarda aholi salomatligini nazorat qilish (monitoring) hamda tiklash muassasalarining ko'pchiligi eski tibbiy anjomlar bilan qurollantirilgan. Ayrim murakkab kasalliklarni aniqlashga yordam beruvchi jihozlar faqat viloyatning markazlarida mavjud, xolos.

Viloyatda aholi salomatligini yaxshilash ko'pgina tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi. Ichimlik suvi bilan ta'minlanish darajasini yaxshilash, aholi ijtimoiy ekologik madaniyatini ko'tarish, tibbiy xizmat ko'rsatish, ayniqsa xususiy yo'nalishlar xizmati hududiy tarkibini yaxshilash lozimdir. Sanitariya, ijtimoiy infratuzilma holatini yaxshilash, iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish aholi o'rtasida ko'payotgan tabiiy, ijtimoiy kasalliklarning kamayishiga olib keladi

X U L O S A

O'zbekistonda mustaqillik yillarida aholi salomatligini asrash va muhofazalash borasida katta ishlar amalga oshirildi va bu jarayon hozirda ham davom ettirilmoqda. Xususan, tibbiy va ekologik infratuzilma faoliyatini yaxshilash, yangi texnologiyalar bilan qurollantirish borasida islohotlar amalga oshirilmoqda. Bunga 1998 yilda «O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish Davlat dasturi to'g'risida»gi respublika Prezidentining farmoyishi hamda uning asosida amalga oshirilayotgan ishlar dalil bo'la oladi.

Ushbu tadqiqot ishida hozirgi zamon iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fani tizimidan o'rin olgan tibbiyot geografiyasi doirasida **Namangan viloyatining nozogeografik vaziyatini ekologik tahlili** ko'rib chiqildi.

Viloyatni tibbiy geografik jihatdan tadqiq etish, ekologik va ijtimoiy sharoitning aholi salomatligiga ta'sirini o'rganish, mintaqaning geografik o'ri, aholi sonining ortib borishi, joylanishi, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va ixtisoslashuvi, qishloq xo'jaligida suv resurslaridan foydalanish hamda nozogeografik vaziyat shakllanishida asosiy ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Olib borilgan izlanishlar natijasida quyidagi **ilmiy xulosa va tavsiyalar** ishlab chiqildi:

- Iqtisodiy geografiya fanining ijtimoiylashib, ekologiyalashib borishi bu yo'nalishda ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi. SHu asosda respublika hududlarida kompleks tadqiqotlar olib borish, aholi yashash sharoiti hamda salomatligini yaxshilash, uning ijtimoiy muhofazalanganlik holatini o'rganish dolzarb masala hisoblanadi.
- Ijtimoiy-iqtisodiy omillarning tabiiy muhitga bosimi ortib borayotgan hozirgi davrda aholi salomatligiga ta'sir etuvchi hududning ekologik xususiyatlari bu sharoitlar bilan birlashib, kompleks ta'sir etuvchi kuchga aylanib bormoqda. Ayni vaqtda bunday omillar tahliliga yo'naltirilgan tadqiqotlar an'anaviy tabiiy hamda iqtisodiy geografiya fanlarining

o'zaro yaqinlashib borishiga, ular o'rtasida vujudga kelgan uzilish xavfini bartaraf qilishga yordam beradi.

➤ Namangan viloyati aholisi umumiy kasallanishi respublika o'rtachasiga yaqin bo'lsada, ko'p jihatlari bilan farq qiladi:

➤ Respublika aholisi nafas olish a'zolari bilan eng ko'p kasallansa, Namangan viloyati aholisi eng ko'p ovqatlanish a'zolari va ichki kasalliklardan aziyat chekadi;

➤ Tabiiy sharoiti bir-biriga yaqin hududlarda aholi salomatligi sifat ko'rsatkichlarining farqlanishi hududda ijtimoiy va ekologik ifratuzilmaning, sanitar-gigienik madaniyatning shakllanganligi bilan ham bog'liqdir. SHu munosabat bilan qishloq joylarda tibbiy xizmat infratuzilmasini tubdan yaxshilash zarur;

Yuqumli kasalliklarning asosiy qismi yer osti suvlarini aholi tozalamasdan iste'mol qilishi tufayli yuzaga keladi. Kasalliklar mavsumlar almashinish davrida, ayniqsa yer osti suvlari sathi ko'tariladigan davrda eng ko'p tarqaladi.

Yosh bolalar xastalanishi va o'limiga asosan pnevmoniya kasalligi, ko'p hollarda transchegaraviy kasallik turlari sabab bo'lmoqda. Bolalar xastalanishida kamqonlik, raxit kasalliklari ham salmoqli o'rin tutadi. Binobarin, mintaqada pediatriya xizmatini yaxshilash ham zarur masala sanaladi.

Aholi xastalanishi ko'rsatkichlari va ularning hududiy jihatlarning tahlillari asosida viloyat ikkita tibbiy ekologik rayonga ajratildi.

Namangan viloyatining tibbiy geoekologik nuqtai nazardan tahlil qilish asosida bugungi kunda viloyatimiz mintaqalaridagi mavjud nozogeografik vaziyat hamda bunda alohida o'rin tutuvchi kasallik o'chog'larini batafsil o'rganildi.

ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida.-T.: O'zbekiston, 1995.- B.268
2. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda.-T.: O'zbekiston, 1999.-135 b.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.-T.: O'zbekiston, 1997.-267 b.
4. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari.-T.: O'zbekiston, 2009.-54 b.
5. Abu Ali Ibn Sino. Tib qonunlari. -T.: A.Qodiriy nomidagi halq me'rosi nashriyoti, 1-jild, 1994.-304 b.
6. Avtсын A.P. Vvedenie v geograficheskuyu patologiyu.-M.: Meditsina, 1972.-328 s.
7. Akramov Z. M., Rafikov A. A. Proshloe, nastoyashee i budущее Aral'skogo morya.-T.: Mexnat, 1990.-144 s.
8. Aral'skoe more: problemy ekologii i zdorov'ya /A. Duschanov i R.B. Abdullaev idr. / pod redaktsiey B.A. Duschanova i R.B. Abdullaeva.-T.: "Abu Ali ibn Sino", 2002. 87 s.
9. Asanov R. Aholi geografiyasi. O'quv qo'llanma.-T.: O'qituvchi, 1978.-220 b.
10. Baratov P. O'zbekiston tabiiy geografiyasi.-T.: O'qituvchi, 1996.-262 b.
11. Bo'rieva M.R. O'zbekistonda oila demografiyasi.-T.: Universitet, 1997.-181 b.
12. Komilova N.K. Nozogeograficheskaya situatsiya v Buxarskoy oblasti. Avtoref. diss. kand. geogr. nauk.-T., 1999.-22 s.
13. Komilova N.Q., Soliev A.S. Tibbiyot geografiyasi.-T.: Istiqlol, 2005.-162 s.
14. Markovin A.P. Istoricheskiy ocherk razvitiya otechestvennoy meditsinskoy geografii // Meditsinskaya geografiya.-M, 1961.-S. 15-28.
15. Markovich D.J. Sotsial'naya ekologiya. M.: "Prosveteniya", 1991.-173 s.
16. Medouz D.X., Medouz D.L., Randers Y. Za predelami rosta.-M.: Izd. Gruppya

Progress: Pangeya, 1995.-304 s.

17.Mey J. Meditsinskaya geografiya // Amerikanskaya geografiya. Sovremennoe sostoyanie i perspektivy.-M., 1957.-S. 431-445.

18.Metodologicheskie osnovy meditsinskoy geografii.-L.Nauka,1981,-164 s.

19.Mintaqaviy iqtisodiyot. Soliev A.S., Ahmedov E.A. va b.-T.: Universitet, 2003.- 304 b.

20.Mullyadjanov I.R. Demograficheskoe razvitie Uzbekistana.-T.: Uzbekistan, 1983.-276 s.

21.Muxammedov O. Aholi tabiiy harakatining hududiy tafovutlari (Samarqand viloyati misolida). Avtoreferat. –T., 2007. – 22 b.

22.Nazarov M.I. Territorialnaya organizatsiya meditsinskogo obslujivaniya naseleniya v sel'skoy mestnosti (po primere Namanganskoy oblasti. Aftoref. diss. kand. geogr. nauk.)-T., 1996.-24 s.

23.O sostoyanii prirodnoy sredy i ispol'zovaniya prirodnых resursov v Respublike Uzbekistan. Natsional'nyy doklad.-T., 2005.

24.Nigmatov A.N., Reymov P.N., Abdireymov S.J. Geoekologicheskaya otsenka i monitoring agrolandshaftov del'tы Amudar'ы.-T.: Turon-Iqbol, 2006.-128.

25.Nigmatov A.N. Ekologiya.-T.: CHO'lpon, 2006.-126 ts.

26.Odum Yu. Osnovy ekologii.-M.: Mir, 1975.-742 s.

27.Proxorov B.B. Sotsial'naya ekologiya.-M.: Akademiya, 2005.-413 s.

28.Rayx Ye.L. Modelirovanie v meditsinskoy geografii.-M.: Nauka, 1984.-157 s.

29.Rayx Ye.L. Evolyutsiya predstavleniy ob ob'ekte nauki v sovremennoy meditsinskoy geografii // Meditsinskaya geografiya i zdorov'ye.-L., 1989.-S. 30-44.

30.Rasulov A.R., Hikmatov F.H. Aytboev D.P. Gidrologiya asoslari.-T.: Universitet, 2003.-327 b.

31.Rafiqov A.A., Abirqulov Q.N. va b. Ekologiya. O'quv qo'llanma.-T.: TDIU, 2004.-141 b.

32.Rafiqov A.A. Geoekologik muammolar.-T.: Fan, 1996.-110 b.

33.Reymers N.F. Ekologiya (teoriya, zakony, pravila, printsipy, gipotezy).-M.,

Molodaya Rossiya, 1994.-223 s.

34.Saliev A. Xamraev M., Kazbekov B. Проблемы социально-экономического и демографического развития Нижнеамударьинского района // Vestnik Kazgu.-Almaty, 1998.-№ 12.-S. 63-65.

35.Soliev A.S. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning dolzarb masalalari. T.: Universitet,-1995.-56 b.

36.Soliev A., Komilova N. Aholi salomatligining geografik xususiyatlari va nozogeografik vaziyat // O'zMU xabarlari, №1, 2000.-B.12-17.

37.Soliev A.S., Xamroev M.O., Komilova N.Q. Tibbiyot geografiyasining ba'zi bir masalalari // O'zbekiston Geografiya jamiyati axboroti, XVIII tom.-T., 1997.-B. 77-79.

38.Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining qonuni.-T.: Adolat, 1992. 297 b.

39.Tonkopi M.S. Ekonomicheskaya otsenka vodnykh resursov i uщerbov zagryazneniya vozdushnoy sredy.-Almaty: Ekonomika, 1997.-219 s.

40.SHodimetov Yu.SH. Regionalnye problemy sotsialnoy ekologii.-T.: Uzbekistan, 1992.-111 s.

41.Internet saytlari

www.uznature.uz—O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi sayti.

www.un.org/esa/sustdev/—Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT) ning barqaror rivojlanish komissiyasi sayti.

www.unesco.org—BMTning maorif, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti sayti.

www.unep.org —BMTning atrof-muhit bo'yicha dasturi sayti.

www.undp.org —BMTning rivojlanish dasturi sayti.

www.unese.org/env/esd/—BMTning iqtisodiyot komissiyasi sayti

www.worldresources.org —Jahon tabiiy resurslar sayti.

www.unfra.org —BMTning aholishunoslik dasturi sayti.

www.who.org — Butunjahon sog'liqni saqlash tashkilotining sayti.

www.biodiv.org —Biologik xilma-xillik bo'yicha